

**O`zbekiston Respublikasi
Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligi**

Namangan muhandislik-pedagogika instituti

«Informatika va AT» kafedrası

**«Kasb maxorati»
fanidan**

Ma'ruzalar matni



Namangan-2006

Ma`ruza -1. Kirish. Kasbiy malaka. Kasbiy ko`nikma va malakalarni turlari. Kompyuter sinflarida ishlash texnika xavsizlik qoidalari

Reja

1. Kasbiy malaka. Kasbiy ko`nikma va malakalarni turlari.
2. Kompyuter sinflari va tarmoqlarda ishlash texnika xavsizligi va sanitariya-gigiena talablari.

Kasbiy malaka. Kasbiy ko`nikma va malakalarni turlari.

Kasbiy bilimlarni egallash, ishlab chiqarish malaka va ko`nikmalarning shakllarini- talabalarning bilim faoliyatlaridagi o`zaro bog`liq komponentlardir. Bu muammoni hal qilinishi talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko`p jixatdan bog`liqdir.

Malaka maqsadga yo`nalgan faoliyat jarayonida undagi ayrim xarakatlarga maxsus e`tibor bermagan holda, lekin ong nazorati ostida avtomatik suratda bajarish qobiliyatidir. SHu bilan birga bu xarakatlar mashq qilish jarayonida shakllangan va ancha murakkab xarakatlar strukturasiga kiradi.

Faoliyatning ayrim qismlarini avtomatik ravishda bajarish kobiliyati turlicha bo`lishi mumkin, chunki ko`nikmalar sifati ham bir hil emas. Ko`nikmalar shakllangan va shakllanmagan, yangi va eski, oddiy va murakkab, alohida va kompleks bo`lishi mumkin.

Ishlab chiqarish malakalarining quyidagi turlari ma`lum:

Aqliy malakalar - bu vazifalarni bajarishda mavjud bilim hamda tajribalarni o`ylab turmasdan zudlik bilan qo`llay olish, vaziyatni faxmlash (qaytib olish maydonchasini chamalash va burilish chiroqlarini yondirib, qayrilib olishni amalga oshirish).

Sensor malakalar - bu yerda sezgi organlari faoliyati asosiy rol o`ynaydi: (metalni tashqi ko`rinishiga qarab sortini, mashinalarning singan, bo`zilganligini ovoziga qarab aniqlash)

Dvigatelli (motorli) malakalar - ishlab chiqarish ta`limi uchun juda xos bo`lib, ishlab chiqarish ta`limida talabalarning o`zlashti-rishi va tayyorgarligini belgilaydi, asosan qo`llar xarakati bilan, ba`zan qo`l, oyoq va butun tana xarakati bilan bog`liq (eletr qurilmalariga texnik xizmat ko`rsatish elektr mashinalarini manbaga ulash montaj qilish, qurilmalarni texnik xolatini o`zgartirish va xokazolarda qo`llar va oyoqlar xarakati).

Senor dvigatelli malakalar - idrok va dvigatelli xarakatlarni o`z ichiga oluvchi malakalar. Bu tipga mashina va kulda bajarilishi kerak bo`lgan jarayonlarni o`rganishda shakllanadigan ko`pchilik ko`nikmalar kiradi.

**Irodaviy - intizom ko`nikmalari.** Xar bir ko`nikma shakllanish jarayonida qator bosqichlarni bosib o`tadi. Dvigatelli ko`nik-malarning quyidagi shakllanish bosqichlarini ko`rib o`tamiz.

Birinchi - malakali fikrlashning boshlanishi. Maqsadni aniq tushunish, ammo unga erishish yo`llarini yaxshi tushunmaslik. Xarakatni bajarishda qo`pol xatolar.

Ikkinchi - ongli, ammo epsiz bajarish. Xarakatni kanday bajarishni aniq tushunish, ammo o`z diqqatini qancha jamlashiga qaramay noaniq bo`sh bajarish, ortiqcha xarakatning ko`pliligi, mazkur ko`nikmani ijobiy tadbiiq etishning yo`qligi.

Uchinchi - malakaning avtomatlashishi. Xarakatlarni bo`shashtirilgan erkin diqqat vaqtida borgan sari sifatliroq bajarish va uni taqsimlash imkoniyatining mavjud bo`lishi ortiqcha xarakatlarni bartaraf etish: ko`nikmalarning ijobiy tadbiiq etishning paydo bo`lishi.

Turtinchi - o`ta avtomatlashtirilgan ko`nikma. Boshqa murakkabroq bir xarakatni bajarish vositasi bo`lgan xarakatni aniq, tejamli qat`iy bajarish.

Ko`nikmalarning shakllanishiga quyidagi faktorlar ta`sir ko`rsatadi:

1. Talabalarni yutuqlarga erishadigan qiziqishlari.
2. Ularda zarur bilimlarning mavjudligi.
3. Instruktajning boshlanishiga qadar va mashqlar jarayonidagi samaradorligi.
4. Mashqlar jarayonida o`z - o`zini nazorat qilish, usta bahosini o`z vaqtida bo`lishi va ob`ektivligi.
5. Talabalar faoliyatining aktiv xarakteri, ular aktivligini oshiruvchi ta`lim uslublarini qo`llash.
6. Mashqlar mikdori.
7. Ko`nikmalarning rivojlanish darajasiga aniqlik, shijoat va xokazolar jihatidan qo`yiladigan talablar.
8. Ko`nikmalarning turli ko`rinishi va xususiyatlari.
9. Talabalarning yosh va individual xususiyatlari.

Malaka - bu kishining ishni yaxshi sharoitda maxsuldor, zarur sifatlar bilan tegishli vaqtda bajara olish qobiliyatidir.

Xar qanday malaka bilim hamda ko`nikmalarni o`ziga olib mavjud ko`nikma bilimlar asosida shakllanadi. Bilim va ko`nikmalar asosida malaka tarkib topadi.

Malakalar o`z shakllanishida kator bosqichlarni bosib o`tadi:

- Birinchi bosqich - boshlang`ich ko`nikma.
- Ikkinchi bosqich - yetarli bo`lmagan ko`nikmali faoliyat.
- Uchinchi bosqich - alohida umumiy ko`nikma.
- Turtinchi bosqich - o`ta rivojlangan ko`nikma.
- Beshinchi bosqich - maxorat. Turli malakalardan ishonchli ijodiy ravishda foydalanish.

EXM bilan ishlash texnika xavfsizligi qoidalar.

Kompyuter yetarli qiyin texnika hisoblanib, inson tafakkurining xar tomonlama zamonaviy-amaliy maxsulidir. SHuning uchun xam u o`zi bilan inson hayoti uchun aniq xavf taqdim qiladi. Xozir biz uning butun yashirin fikrlarida so`z olib bormasdan, faqat ayrim hollardagi, kompyuter bilan ishlashdagi yodlab qolish zarur bo`lgan va nafaqat texnikadagi, balki inson hayotidagi zaruriy o`ylar haqida fiqrlaymiz. Berilgan mavzuda sovuqqon tarzda qarash emas, balki keltirilgan kuyi dastur bilan kollejlarda xam, shuningdek zamonaviy-xarbiy kompyuter markazlarida ham foydalanish lozim.

Xisoblash texnikasi apparaturasiga ixtiyotqorlik munosabatida bo`ling.

Kabinetga shoshilmay, stollarga tegmay kiring, Siz uchun ajratilgan joyni egallang, stol ustidagi narsalarga teg`mang.

APPARATURA KATTA KUCHLANISHDA ISHLAYDI, SHU SABABLI MAN ETILADI:

Ulovchi kabel raz`yomlarini qo`l bilan tegish;

Sim, yerlantirish vositalari, ekran va monitoring orqa tamonini tegish;

O`qituvchinig ruxsatisiz apparaturani yoqish va o`chirish, xo`l kiyimda ishlash (masalan yomgirdan keyin);

Ishlayatgan EHMni qarovsiz qoldirish.

ESDA TUTING ISHLASH VAQTDA:

ekran displeyidan 60- 70 sm masofadan bo`ling, monitor ustiga suyanmang.

Doimo quzoynak tutgan talabalar albatta displeyda quzoynakda ishlashlari kerak.

Kabinetda ot o`chirgich turgan joyini doimo esda tuting. O`qituvchi bilan birgalikda o`t o`chirgich bilan foydalanish yuruqnomasini o`rganib chiqing.

KUYGAN XID PAYDO BO`LGANDA APPARATURANI DARXOL O`CHIRING VA U XAQIDA O`QITUVCHIGA XABAR BERING.

ISH BOSHLASHDAN OLDIN:

Ish joyingizda qo`zga qo`rinadigan buzilishlar yo`qligiga ishonch xosil qiling;

Monitor oldida o`tirganiingizda qo`zingiz ekran markazi bo`lsin;

Stol ustiga daftar, kitob va o`quv qurollarini sizga EHMda ishlashga xalakit bermayligan qilib joylashtiring;

EHMda ishlash vaqtida maqsad va bajaradigan ketma-ketliklarni tushinish uchun o`qituvchining gaplarini diqqat bilan tenglang, zaruyat tug`ilganda o`qituvchiga murojat eting;

O`qituvchinig «Ishlashni boshlang» suzlaridan sung EHMda ishlashga odatlaning.

EHMda ishlash katta diqqatni ta`lab etadi.

KOMPYUTERDA YOMON YORITILGAN XONALARDA, O`ZINGIZNI YOMON XIS QILGANINGIZDA, UYKUNGIZ KELDANIDA, CHARCHAGANINGIZDA ISHLASH MUKIN EMAS.

Ishlash vaqtida boimo yuqorida aytib o`tilgan qoida va o`qituvchinig qo`rsatmalariga rioya qiling.

Apparatura sozligini nazorat qiling, galati tovushlar eshitishingiz yoki kimyuter o`zidan-o`zi uchishni boshlashi bilan ishingizni to`xtating

Klaviaturada ishlash vaqtida kuch ishlatmang, klavishlarga kattiq bosmang, «yumshoq»ishlashga xarakat qiling, toza va quriq qo`l bilan ishlang.

YODDA TUTING: ko`ngilsiz vokeyadan o`zingizni asrash, EHMda ishlash bilimingizni va maxoratingizni oshirish maqsadida:

XECH QACHON O`ZINGIZ O`QITUVCHINING RUXSATISIZ NOSOZLIKLARNI TUZATISHGA XARAKAT QILMANG.

Siz ishlash joyingizga va unda joylashgan asbob-uskuna va apparaturaga javobgarsiz.

QOIDALARGA RIOYA QILMASLIK – INTIZOM VA TARTIBNI QO`POL BUZISH QATORIGA KIRADI!

Elektr xavfsizligi xaqida qoida.

Elektr o`tkazuvchan materiallaridan o`tayotgan tok qiska tutashuvi qattiq yongin keltirishi mumkin va insonnig ta`nasini kuydirish mumkin.

Doimo tarmoq kabellari, vilka va rozetkalar to`g`riligi xaqida ogoh bo`ling.

Elektr toki urishi xavfini kamaytirish maqsadida (vositani yerlantirilganligini tekshirib bo`lmaydigan xollarda) boshqa apparatni ulashda oldin texnika vositasini o`zgaruvchan tok rozetkasidan uzib qo`yish kerak. Uni elektr tokiga ulashdan oldin barcha ulanishlarni sinchiklab tekshirib olinadi.

Elektr vositasini kuchlanish tarmog`idan to`la uzmasdan metal kismilariga tegish man etiladi. Signal kabellarini ulash va uzish uchun iloji boricha bitta qo`l bilan bajarishga xarakat kilish kerak. CHunki bu xar xil elektr potentsialli yuzalariga tegib ketish oldini olib, elektr toki urishini oldini oladi.

Biz biror ish bilan shugullanishdan avval texnika-xavfsizligi qoidalari bilan to`liq tanishib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Ma`ruza-2. Kompyuterlarni tasniflash usullari

Reja

Kompyuterlarni tasniflash usullari.

Mini (kichik) EHMlar.

Mikro EHM.

SHaxsiy kompyuterlar (SHK, PC).

Kompyuterlarni ixtisoslashtirish.


Kompyuterlarni tasniflash usullari.

Kompyuterlarni tasniflashning juda ko`p tizimlari mavjud. Biz ulardan faqat ayrimlarinigina ko`rib chiqamiz.

Kompyuterlarni mo`ljallangan maqsadga ko`ra tasniflash

Bajarishi mo`ljallangan ishlarga qarab tasniflash - tasniflashning eng dastlabki usullaridan biri. U kompyuter qanday ishlarda qo`llanilishi bilan bog`liqdir. Bu tamoyil bo`yicha katta EHM (elektron hisoblash mashinalari), mini EHM, mikro EHM va shaxsiy kompyuterlarga bo`linadi. Ular esa o`z navbatida ommaviy, ishchi, portativ, ko`ngilochar va ishchi stansiyalariga bo`linadi.

Katta EHMlar



2.1-rasm.

Bular eng kuchli, quvvati katta kompyuterlardir. Ularni juda katta tashkilotlar va hatto xalq xo`jaligining butun tarmoqlarida xizmat ko`rsatish uchun qo`llaydilar. Xorijda bu toifa kompyuterlarini meynfreymlar (main frame) deb atashadi.

Rossiyada ularni ko'proq katta EHMLar termini bilan atash odatga kirib qolgan. Katta EHMga xizmat ko'rsatish sharti bir necha o'nlab kishini tashkil qiladi. Mana shunday superkompyuterlar bazasida o'zicha bir necha bo'limlarni yoki guruhlarini oluvchi hisoblash markazlari tashkil qilinadi.

Mini (kichik) EHMLar

Katta EHMLardan bu guruh kompyuterlari o'lchamlarining va tegishli ravishda unumdorligining va narxining pastligi bilan farq qiladilar. Bunday kompyuterlar yirik korxonalar, ilmiy muassasalar va o'qitish faoliyatini ilmiy faoliyat bilan qo'shib olib boruvchi ayrim oliy o'quv yurtlari tomonidan foydalaniladi. Mini EHMLarni asosan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda ishlatadilar. SHu kompyuterning o'zi ishlab chiqarishni boshqarishni boshqa vazifalar bilan qo'shib olib borishi mumkin. Masalan, u iqtisodchilarga mahsulot tannarxi ustidan nazoratni amalga oshirishda, normirovkachilarga (me'yorlovchilarga) dastgohlarning moslamalarini loyihalashtirishni optimallashtirishda, hisobxonaga soliq idoralari uchun muntazam ravishda berib boriladigan hisobotlarni tayyorlashda va boshlang'ich hujjatlarning hisobini amalga oshirishda yordam berishi mumkin.

Mini (kichik) EHM bilan ishlashni tashkil qilish uchun ham garchi, katta EHMLar uchun bo'lganidek, ko'p sonli bo'lmasada, maxsus hisoblash markazi talab qilinadi.

Mikro EHM

Bunday toifadagi kompyuterlardan ko'plab korxonalar foydalana olish imkoniyatiga egadirlar. Mikro EHMDan foydalanuvchi tashkilotlar, odatda, hisoblash markazlarini tuzmaydilar. Bunday kompyuterlarga xizmat ko'rsatishi uchun tarkibi bir nechta kishidan iborat bo'lgan, uncha katta bo'lmagan laboratoriya zarur bo'ladi, xolos. Hisoblash laboratoriyasi tarkibiga, garchi ular dasturlar ishlab chiqish bilan shug'ullanmasalarda, albatta, dasturchilar kiradi. Zarur bo'lgan tizimli dasturlarni, odatda, mikro EHM bilan birga sotib oladilar, kerak bo'lgan amaliy dasturlarni jamlab chiqishni esa yirik hisoblash markazlariga yoki ixtisoslashtirilgan tashkilotlarga buyurtma beradilar.

Katta EHMLarga solishtirganda unumdorligi uncha katta bo'lmagan mikro EHMLar yirik hisoblash markazlarida ham keng qo'llanilmoqda. U yerda ularga buning uchun qimmat turadigan superkompyuterlarni ishlatishdan ma'no yo'q bo'lgan yordamchi amallarni topshiradilar. Bunday vazifalarga, masalan, ma'lumotlarni oldindan tayyorlash kiradi.

SHaxsiy kompyuterlar (SHK, PC)

Bu toifa kompyuterlari keyingi yigirma yil ichida gurrak rivojlandi. Bu kompyuterning bitta ishchi o'rniga xizmat ko'rsatishini uning nomi ham ko'rsatib turibdi. Odatda, shaxsiy kompyuter bilan bitta odam ishlaydi.

O'lchovlari va narxining nisbatan uncha katta emasligiga qaramay, zamonaviy kompyuterlar ancha katta unumdorlikka egadirlar. Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarning ko'pchiligi 70-yillardagi katta EHMLar, 80-yillardagi mini EHMLar, 90-yillardagi mini EHM lardan ustundir. SHaxsiy kompyuter (Personal computer) kichik korxonalarning va alohida shaxslarning talablarini ko'pini qondirishga qodirdir.

SHaxsiy kompyuterlar 1995 yildan so'ng Internet gurrak rivojlanib ketgani munosabati bilan juda mashhur bo'lib, ommaviylashib keta boshladi. Butunjahon tizimidan ilmiy, o'quv, madaniy ma'lumot va ko'ngilochar axborot manbai sifatida foydalanish uchun shaxsiy kompyuterning o'zi yetarlidir, shaxsiy kompyuterlar, shuningdek, istalgan fan bo'yicha o'qitish jarayonini avtomatlashtirish, masofadan turib (sirtidan) o'qitish, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishni uyushtirishning ham qulay vositasidir. Ular faqat ishlab chiqarish vositalari emas, balki ijtimoiy munosabatlarga ham katta hissa qo'shadilar. Ularni ko'pincha mehnat faoliyatini tashkil qilish uchun ishlatadilar. Bu ishsizlik sharoitida muhim ahamiyatga ega.

So'nggi vaqtlargacha shaxsiy kompyuterlarning modellarini (rusumlarini) shartli ravishda ikki toifaga: maishiy SHK va professional SHKlarga bo'lganlar. Maishiy rusumdagilar, odatda, past unumdorlikka ega bo'lganlar, lekin ularda rangli grafika va ovoz kiritish uchun alohida choralar ko'rilgan, professional modellar uchun bu talab qilinmaydi.

Keyingi yillarda hisoblash texnikasi vositalarining keskin arzonlashganligiga erishilgani munosabati bilan professional va maishiy kompyuterlar o'rtasidagi farq sezilarli darajada kamaydi va bugun maishiy kompyuterlar sifatida yuqori unumdorlikka ega professional rusumdagi kompyuterlardan foydalanilmoqda, professional rusumdagilar esa, o'z navbatida, ilgari maishiy uskunalargagina xos bo'lgan multimediya axborotlarni qayta ishlovchi qurilmalar bilan to'ldirilmoqda. Multimediya atamasi

ostida bitta hujjatda bir necha xildagi ma'lumotlar (matn, grafika, musiqiy va videoma'lumotlar)ni birlashtirish yoki bu majmua ma'lumotlarni qayta ishlash uchun mo'ljallangan uskunalarning yig'indisi (to'plami) tushuniladi.

1999 yildan boshlab, shaxsiy kompyuterlar sohasida PC-99 xalqaro sertifikatsiyalash standartiga amal qilina boshladi. U shaxsiy kompyuterlarni tasniflash tamoyillarini tartibga soladi (reglamentlashtiradi) va har bir toifaga qo'yiladigan va tavsiya etiladigan minimal talablarni belgilab beradi. YAngi standart shaxsiy kompyuterlarning quyidagi toifalari belgilangan:

- Consumer PC (ommaviy SHK);
- Office PC (ishchi SHK);
- Mobice PC (portativ SHK);
- Work Station PC (ishchi stansiya);
- entertainment PC (ko'ngilochar SHK).

PC-99 ixtisoslashtirilishi bo'yicha hozirgi vaqtda bozorga chiqarilgan shaxsiy kompyuterlarning ko'pchiligi ommaviy SHKlar toifasiga kiradilar. Ishchi shaxsiy kompyuterlari uchun grafikani qayta tiklash vositalariga qo'shiladigan talab minimallashtirilgan, tovush ma'lumotlari bilan ishlovchi vositalarga esa umuman hech qanday talab qo'yilmaydi. Portativ shaxsiy kompyuterlar uchun yo'llash uzoqlashtirilgan ob'ektlar bilan ulanishni ta'minlash vositalari, ya'ni kompyuter aloqasi vositalarining mavjudligi majburiy talabdir. Ishchi stansiyalari toifasida ma'lumotlarni saqlash usullariga, ko'ngilochar SHKlar toifasida esa grafika va ovoz bilan ishlash vositalariga talablar kuchaytirilgan.

Kompyuterlarni ixtisoslashtirilish darajasi bo'yicha tasniflash

Ixtisoslashtirilish darajasiga qarab kompyuterlar universal va ixtisoslashtirilganlarga bo'linadi. Universal kompyuterlar bazasida istalgan tarkibdagi (kompyuter tizimini tarkibini belgilash ixtisoslashtirish deyiladi) hisoblash tizimini yig'ish mumkin. Masalan, bitta shaxsiy kompyuterning o'zidan matnlar, musiqa, grafika, foto va videomateriallar bilan ishlashda foydalanish mumkin.

Ixtisoslashtirilgan kompyuterlar aniq vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan. Bunday kompyuterlarga masalan, avtomobillar, kemalar, samolyotlar, kosmik apparatlarning bort kompyuterlari kiradi. Bort kompyuterlar mo'ljalga olish va navigasiya vositalarini boshqarishni amalga oshiradilar, avtomatik boshqaruv va aloqaning ayrim vazifalarini bajaradi, shuningdek, ob'ekt tizimlarining ish parametrlarini optimallashtirish (masalan, ob'ektning yoqilg'i sarfini aniq sharoitlarga bog'liq ravishda optimallashtirish) vazifalarning bazilarini bajaradilar. Grafika bilan ishlashga mo'ljallangan maxsus mini EHMLar grafik stansiyalar deb ataladi. Ulardan kino va videofilmlar, shuningdek, reklama mahsulotlarini tayyorlashda foydalanadilar. Korxonaning kompyuterlarini bir tarmoqqa birlashtiruvchi ixtisoslashtirilgan kompyuterlar fayl serverlari deb nomlanadilar. Umumjahon kompyuter tarmog'i ishtirokchilari o'rtasida axborot uzatishni ta'minlovchi kompyuterlarni tarmoq serverlari deb ataydilar.

Ko'pchilik hollarda ixtisoslashtirilgan kompyuterlar tizimlarining vazifalarini odatdagi universal kompyuterlar ham uddalashlari mumkin, lekin ixtisoslashtirilgan tizimlardan foydalanish har holda samaraliroq hisoblanadi. Samaradorlikni baholashning mezonini bo'lib, uskuna unumdorligi uning bahosiga nisbati hisoblanadi.

Tip-o'lchamlari bo'yicha tasniflash. SHaxsiy kompyuterlarni tip-o'lchamlariga qarab ham tasniflash mumkin. Masalan, stolusti (deskto), portativ (notebook) va cho'ntak (palmtop) modellari.

Stol ustiga qo'yiladigan modellar eng ko'p tarqalgan. Ular ish joyining qurollaridir. Bu modellar tashqi qo'shimcha qurilmalar qo'shish ichki qo'shimcha komponentlar o'rnatish uncha murakkab emasligi hisobiga konfiguratsiyani o'zgartirishning osonligi bilan ajralib turadi. Korpus o'lchamlarining yetarli ekanligi shunga o'xshash ko'plab ishlarni mutaxassislarni jalb qilmasdan bajarish imkonini beradi, bu esa kompyuter tizimini ular qaysi ishlarni bajarish maqsadida sotib olinganiga qarab sozlash uchun imkoniyat yaratadi.

Portativ modellar transportirovka qilish uchun juda qulaydir. Ularni ko'p vaqtlarini xizmat safarlarida va yo'lda o'tkazadigan tadbirkorlar, tijoratchilar, korxona va tashkilotlarning rahbarlari ishlatadilar. Portativ kompyuterlar bilan ish joyi yo'q bo'lganda ishlash mumkin, ya'ni undan foydalanish uchun maxsus joy bo'lishi shart emas. Portativ kompyuterning alohida jozibadorligi shundaki, undan aloqa vositasi sifatida foydalanish mumkin. Bunday kompyuterni telefon tarmog'iga ulab, istalgan jo'g'rofiy nuqtadan turib, o'z tashkilotingizni markaziy kompyuteri va Portativ kompyuter o'rtasida ma'lumotlar almashishingiz mumkin. Ma'lumotlar almashish, buyruq va farmoyishlarini yetkazish, tijorat ma'lumotlarini ma'ruza va hisobotlarni olish ana shunday tarzda amalga oshirishlari mumkin. Ish joyida

foydalanish uchun portativ kompyuterlar uncha qulay emas, ammo ularni stasionar (turg'un) foydalanadigan stol kompyuterlariga ulash mumkin.

CHO`ntak kompyuterlari "intellektual yozuv daftarcha"lari vazifalarini bajaradilar. Ular tezkor ma`lumotlarni saqlash va ularga tezkor murojaat qilish imkonini beradi. CHO`ntak kompyuterlarining ayrim modellari qat`iy o`rnatilgan dasturli ta`minotga egadirlar, bu bevosita ishlashni yengillashtiradi, ammo amaliy dasturlarni tanlashda moslanuvchanligini pasaytiradi.

**Mos kelish bo`yicha tasniflash.** Dunyoda kompyuterlarning ko`plab turi va xili mavjud. Ular turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan chiqariladi, turlicha detallardan yig`iladi, turli xil dasturlar bilan ishlaydi. Bunda turli xildagi kompyuterlarning bir-birlari bilan mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Har xil kompyuterlarga mo`ljallangan qismlar va uskunalarning o`zaro almashtirilishi, bir kompyuterdagi dasturni boshqasiga o`tkazish imkoniyati va har xil tipdagi kompyuterlarning aynan bir xil ma`lumotlar bilan ishlay olish imkoniyati mos kelishiga bog`liqdir.

Apparatli mos kelish. Apparatli mos kelish bo`yicha apparat platformalarini farqlaydilar. SHaxsiy kompyuterlar sohasida bugungi kunda ikkita platforma - IBM PC va Apple Macintosh eng ko`p tarqalgan. Bundan tashqari, tarqalganligi alohida mintaqalar yoki ayrim tarmoqlar bilan cheklangan boshqa platformalar ham mavjud. Kompyuterlarning bitta apparat platformasiga mansubligi ular o`rtasidagi mos kelishni ta`minlaydi, turli platformaga mansublik esa kamaytiradi.

Apparat mos kelishdan tashqari boshqa turdagi mos kelishlar: amaliyot tizimi darajasida mos kelish, dasturiy mos kelish, ma`lumotlar darajasida mos kelishi ham mavjud.

Ishlatilayotgan prosessorning tipiga qarab tasniflash. Prosessor har qanday kompyuterning asosiy qismidir. elektron hisoblash mashinalarida bu maxsus blok, shaxsiy kompyuterlarda esa - maxsus mikrosxema bo`lib, u kompyuterda hamma hisoblarni bajaradi. Hatto kompyuterlar bitta apparat guruhiga mansub bo`lsa ham, ular ishlatayotgan prosessorning turiga qarab bir-biridan farqlanishlari mumkin.


Ma`ruza-3. SHK apparat vositalari.

Reja:

1. **SHaxsiy kompyuterning asosiy bloklari.**
2. Korpus va elektr man`ba bloki.
3. Tizimli plata.
4. Prosessor.
5. Mikrosxemalar majmuasi.
6. Magnit diskli va boshqa turdagi axborotlarni saqlash vositalari.
7. Klaviatura va sichqoncha.
8. Videokarta va monitor.
9. Multimedia vositalari.
10. Qo`shimcha qurilmalar.
11. Kompyuterlarni yigish.
12. Ona platasini o`rnatish.


SHaxsiy kompyuterning asosiy bloklari

Mos keluvchi IBM-PC kompyuterlarining jozibadorligi uning arxitekturasini ochiqligidir. Bu jumla bunday kompyuterlar modul tamoyilida yig`ilgan belgini bildiradi, ya`ni uning asosiy qismlari va bo`laklari, bloklari alohida modullar shaklida ishlab chiqilgan. Bunday tarzda yig`ilganda kompyuter tarkibiga kiruvchi yangi uskunalarni o`rnatish yoki eskirganlarini yangilariga almashtirish uncha qiyinchilik tug`dirmaydi. Bunday kompyuterlarni takomillashtirish ulardan foydalanuvchilarning ham imkoniyatlari darajasidadir.



3.1-rasm.SHaxsiy kompyuter.

Mos keluvchi IBM PC -shaxsiy kompyuterlari tarkibida uchta asosiy qismni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: tizimli blok, monitor va klaviaturadir. Tizimli blokda kompyuterning hamma elektron qismlari: ta'minot bloki, ona (tizimli) plata va almashtiriluvchi yoki almashtirilmaydigan tashuvchilarni to'plovchi (diskovod)larning uzatmalari joylashtirilgan. Klaviatura kompyuterga ma'lum belgilarni yoki boshqaruvchi signallarni uzatishga imkon beruvchi axborot kiritish standart qurilmasidir. Monitor (yoki display) ekranda monoxrom yoki rangli, belgili yoki grafika axborotlarni aks ettirish uchun mo'ljallangan yuqorida sanab o'tilgan qismlarning hammasi bir-biri bilan ulash joyi bo'lgan kabellar vositasida birlashtiriladi.



3.2-rasm. Klaviatura, tizimli blok va monitoring o'zaro aloqasi


3.2-rasmda har qanday kompyuterning asosiy bloklarini klassik to'plami yoki kompyuter atamashunosligidan foydalanib aytilganda, minimal konfiguratsiyasi: tizimli blok, klaviatura va monitor ko'rsatilgan.

Korpus va elektr man'ba bloki

Foydalaniladigan korpus o'lchamlari va joylashtirilishi, ta'minot blokining minimal quvvati (ya'ni ulanuvchi uskunalarning ulash mumkin bo'lgan soni) va to'plovchilarning o'rnatiladigan uzatmalarining maksimal miqdori tizimli blok korpusining qanday tipda bo'lishiga bog'liqdir.

Foydalanuvchilarning tizimli blokka bo'lgan talablari doimo o'zgarib turadi. Bugun undan faqat uyda foydalanayotgan kompyuterlarda emas, ish joyda ishlatiladiganlarida ham multimedia imkoniyatlariga ega bo'lishi talab qilinmoqda. Masalan, firma mahsulotini reklama qilish uchun multimedia kliplarini yaratuvchi dasturlar mashhurdir.

3.4-rasmda eng keng tarqalgan konfiguratsiyali tizimli blok ko'rsatilgan. Biz shuni ko'rishimiz mumkinki, kompyuter egiluvchan diskning 3 dyumli diskovodi va kompakt diskni o'quvchi qurilma bilan ta'minlangan. CHet (periferiya)ga o'rnatiladigan bu ikki uskuna kompyuterlar o'rtasidagi axborot almashishni quyidagi disk vositasida ta'minlaydi. Bular magnit qatlamli egiluvchi disk va lazer kompakt disk (CD-ROM yoki CD-RW)dir.



3.4-rasm. Tizimli blok.

a) tashqi yuza paneli;

- 1 - kompakt-disklar uzatmasi;
- 2 - egiluvchi disklarning diskovodi;
- 3 - "tarmoq" indikatori;
- 4 - "Vinchester" indikatori;
- 5 - ta`minotni ulash tugmachasi;
- 6 - RESET tugmachasi;

b) AT shakl-omilning orqa paneli;

- 7 - klaviaturani ulash uchun joy;
- 8 - modemni yoki sichqonni ulash uchun COM portlar;
- 9 - monitorni ulash uchun joy;
- 10 - tarmoq xaritasi;
- 11 - tovush xaritasi;

- 12 - monitorni ulash uchun rozetka;
- 13 - tarmoq rozetkasi;

- 14 - printer uchun parallel port;


v) - ATX shakl omilining orqa paneli;

- 15 - PSG interfeysli sichqonni ulash uchun joy;
- 16 - PSG interfeysli klaviaturani ulash uchun joy;
- 17 - USB-uskunasini ulash uchun joy;
- 18,20 - modem yoki sichqonni ulash uchun ketma-ket COM-portlar;
- 19 - printer uchun parallel port;
- 21 - mikrofonni ulash uchun joy;
- 22 - chiziqli ovoz chiqish joyi;
- 23 - okustik tizimini ulash uchun joy;
- 24 - joystikni ulash uchun joy;
- 25 - monitorni ulash uchun joy;
- 26 - ichki modemning xaritasi;
- 27 - USB -uskunalarini ulash uchun qo`shimcha joylar;
- 28 - tarmoq xaritasi;
- 29 - tarmoqni ajratish joyi;
- 30 - tarmoq viklyuchateli.

Tizimli plata

Tizimli plata kompyuterning o'ta muhim qismlaridan biridir, chunki u kompyuterning hamma uskunalarini bir butun qilib birlashtiradi. Amalda aynan u kompyuterning bosh parametrlarini, masalan, siz qanday prosessorni ishlatishingiz mumkinligini, prosessor bilan tezkor xotira (039) bir-biri bilan axborotni qanday tezlikda almashishini belgilab beradi.

3.5-rasmda tizimli plataga ulanadigan tashqi uskunalar ko'rsatilgan edi. SHuni ta'kidlash lozimki, ta'minot blokidan tashqari, chetda (periferiyada) joylashgan bu uskunalaridan istalgani yo'q bo'lganda ham kompyuter ishlayveradi. Tizimli plataning o'zida esa har doim ularsiz kompyuter, hatto yoqilmaydigan bir nechta qism (3.12-rasm) o'rnatiladi. Ularning eng muhimlari bu prosessor va tezkor xotiradir. Bundan tashqari, katta tezlikda ishlaydigan prosessorlar uchun majburiy vositalar (atributlar) to'plamiga prosessor korpusining darajasini xavfsiz kattalikkacha tushirish uchun zarur bo'lgan ventilyatorli sovutuvchi radiator kiradi. Prosessor (3.13-rasm) kompyuterning yuragidir u hamma hisoblarni bajaradi va tashqi uskunalarni boshqaradi. Kompyuterning quvvati uning unumdorligiga bog'liqdir. Konstruksiya jihatidan prosessor markazida metall plastikasi joylashgan keramik (sopol) plastina ko'rinishida ishlangan. Tizimli plata bilan ulanish uchun prosessor past tomonda tilla suvi yugurtirilgan chiqishlar - oyoqchalar bilan ta'minlangan. Ularnig soni esa bir necha yuzta bo'lishi mumkin.



3.12-rasm. Tizimli plataga o'rnatiladigan unsurlar (elementlar).




3.13-rasm. Intel Pentum-4 prosessori.

Tizimli platada prosessorni o'rnatish uchun soket (Soket) deb ataluvchi ajratish joyi mo'ljallangan. SHuningdek, korpuslari kartrij ko'rinishida ishlangan prosessorlar ham mavjud, bunday prosessorlar uchun slot (Slot) deb ataluvchi ajratish joyi (rez'yom) o'rnatiladi.

Ancha yuqori chastotalarda ishlovchi zamonaviy prosessorlar haddan tashqari qattiq qizib ketadi. Ammo prosessorlar ham mansub bo'lgan yarim o'tkazgichli mikroshemalar 80-100 darajadan ortiq haroratga chidolmaydi. Ozgina qizib kesa ham, ular yo o'chib qoladi, yoki ishdan chiqadi. Prosessorning korpusini sovutish uchun katta miqdorli qovurg'alarga ega bo'lgan alyuminiy yoki misdan yasalgan og'ir radiatorlardan foydalaniladi (3.14-rasm). Ularni ventilyator havo bilan puflab turadi. Ventilyator uchun "kuler" (inglizcha, "cooler" - muzlatgich, issiqlikni oluvchi) atamasi ommaviydir. Bir qator tizimli

platalar u chiqarayotgan va ko'tarilayotgan shovqinni kamaytirish uchun ventilyatorning aylanish tezligini tartibga solib tura oladi.




3.14-rasm. Prosessorni sovutish uchun kulerli radiator:
a) to'g'ri burchakli; b) dumaloq.

Misol sifatida 3.15-rasmini ko'rib chiqamiz. Unda Celeron va Pentium III prosessorlariga mo'ljallangan, ancha mashhur va ommalashgan AT shaklli omilining tizimli platasini chizmasi keltirilgan.

Tepadagi chap burchakda kengaytiruvchi slotlarning an'anaviy to'plami: turli xildagi kartalarni o'rnatishga mo'ljallangan ikkita ISA va uchta PCI sloti hamda zamonaviy videoadapter uchun AGP sloti joylashgan.

SHuni ta'kidlashimiz mumkinki, ancha yangi tizimli platalarda ISA slotlarini o'rnatmaslikka harakat qilinadi, ularning o'rniga bitta AMR slotini yoki ovoz kartasi, yoki modem uchun mo'ljallangan, AC'97 spesifikasiyasini qo'llab-quvvatlovchi CNR slotini montaj qilinadi. O'ngda esa Intel



korporasiyasining prosessorini o`rnatish uchun katta soket joylashgan. Ushbu holatda - bu Soket 370 dir (Pentium, AMD K5 hamda K6 prosessorlari uchun keng tarqalgani Socket7 edi). Pentium 4 prosessorlari uchun boshqacha joylashtirilgan va kontaktlari soni boshqacha bo`lgan soketlar ishlatiladi. Athlon va Duron prosessorlari uchun Socet A dan foydalaniladi. Tizimli plataning pastida 168 kontaktli DIMM modullarini o`rnatish uchun uchta slot joylashgan. SHuni ta`kidlab o`tish lozimki, 3.15-rasm. Soltek SL-63AV tizimli platasi.

xotira modullari uchun 2 tadan 4 tagacha miqdorda bo'lgan slotlar ko'pincha plataning o'ng qanotida o'rnatiladi.

Ta'minotning ajratish joyi (raz'yom) amalda doimo plataning yuqori o'ng burchagiga yaqin joylashgan bo'ladi. 3.15-rasmda ko'rsatilgan tizimli plata ham bundan mustasno emas. Ammo ushbu holatda ishlab chiquvchilar (loyihachilar ma'nosida) AT shakli-omili singari bo'lganidek, ATX shakl-omilining ham iste'mol bloklarini ishlatish imkoniyatini beruvchi ikki turning ham ras'yomlarini taqdim etgan.

Bunday yondashuv tipik emas, ammo o'zlari kompyuter yig'adigan foydalanuvchilar orasida juda mashhur.

Ko'rib chiqilayotgan tizimli plata AT shakl-omiliga ega bo'lgani uchun unda faqat klaviaturani ulash uchun ajratish joyi bor, xolos. U o'ng tepa burchakda joylashgan. ATX shakl-omilga ega bo'lganda


esa tizimli platada ketma-ket va parallel ulanadigan interfeyslar uchun ham uzilish joylari (raz'yomlar) o'rnatiladi. Pastki chap burchakda kompyuterning chap paneliga chiqaruvchi indekatorlar va tugmachalarni ulash uchun kontakt maydonlari montaj qilingan. Bu yerda, shuningdek, ichki dinamik va klaviaturaning qulfini (bu qulfdan uni korpusga o'rnatish ham qulay) ulash uchun kontaktlar mavjud.

Ular yordamida kompyuterning konfiguratsiyasi yaratiladigan jamperlar uchun Jn va JPn sifatida belgilangan kontaktlar butun tizimli plata bo'yicha erkin joylashtirib chiqilgan. Jamperlarning to'plami nimaga mo'ljallangani va qanday joylashuvi har bir tipdagi tizimli plataning faqat o'ziga xos bo'ladi. Ularni to'g'ri o'rnatish uchun tizimli plataga oq bo'yoqlarda bitilgan yozuvlardan yoki mazkur plataning hujjatlaridagi ko'rsatmalardan foydalanish kerak.

VIA yozuvli kvadratlar - bu chinsetning mikrosxemalaridir. Battery yozuvni doiracha kompyuterning konfiguratsiyasini saqlashga mo'ljallangan. BIOS yordamida o'rnatiladigan CMOS xotirani ta'minlovchi 3 voltli tizimli kuchlanishdir.

Vinchesterlarni ulash uchun tizimli platada HDD1 va HDD2 deb belgilangan ikkita 40 kontakltli ajratish joyi (ikkita IDE kanali) o'rnatiladi. egiluvchan disk uchun 34 kontakltli FDDI ajratish joyi, ketma-ket keluvchi portlar uchun esa ikkita ajratish joyi - COM 1 va COM 2 o'rnatilgan. Bulardan tashqari, tizimli platada USB va IrDa portlari uchun ajratish joylari ham bo'lishi mumkin. 4.15-rasmda Pentium-4 prosessori bilan ishlashga mo'ljallangan yuqori tezlashtirilgan ABIT IT7/IT7E tizimli platasini tashqi ko'rinishi ko'rsatilgan. Plata 400/533 MGs tizimli shinasining chastotasini (to'rtlangan taktli chastotani), Uitra ATA/100/66/33 (IDE1 va IDE 2 ajratish joyi) kontrolyorini, ma'lumotlarini saqlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan RAID (IDE3-IDE6 ajratish joylari) tizimini, AGP 4X slotini, kompyuterga qo'shib ishlab chiqarilgan ovoz prosessorini va tarmoq adapterini qo'llab-quvvatlaydi. BIOS (Award Plug and Play BIOS Suppors APM and ACPI) ishini indekasiya qilish uchun ikki razryadli raqamli tablo (POST Code Display) ishlatiladi.


Agar 3.15 va 3.16-rasmlarda ko'rsatilgan tizimli platalar solishtirilsa, keyingisi sifatida belgilanuvchi hamda ular yordamida kompyuterning konfiguratsiyasi sozlanuvchi jamperlar uchun ajratish joylari amalda yo'q ekanligini payqash mumkin. Bu mazkur platada BIOS dasturidan foydalanganiga bog'liqdir. Ushbu dastur tizimli platada o'rnatilgan hamma uskunalarning ko'pchilik parametrlarini o'zi mustaqil belgilaydi, konfiguratsiyasi qo'lda bajarilishi talab qilinadiganlari esa BIOS ilovasi orqali sozlanadi.



3.16-rasm. Pentium 4 prosessori uchun ABIT IT7/IT7E tizimli platasi.

Processor


Misol uchun 3.17-rasmda turli firmalar chiqarayotgan prosessorlarning bir necha tipi keltirilgan.



3.17-rasm. a) Intel Pentium 4; b) AMD K7 Athlon; v) VIA-13; g) Crusol d) Motorole Power PC 603 processorlari.

Garchi hamma prosessorlar matematik va mantiqiy hisoblarni bajarishga mo'ljallangan bo'lsada, ularning ichki arxitekturasini sezilarli darajada farq qiladi. SHunga muvofiq, turli tipdagi prosessorlar asosida yig'ilgan kompyuterlar uchun dasturiy ta'minot ham farqlanadi. Lekin Intel korporatsiyasi shaxsiy kompyuterlar uchun prosessorlarni ishlab chiqishda yetakchi o'rinni egallagani sababli, boshqa ishlab chiqaruvchilar o'z prosessorlarini Intel korporatsiyasining ommalashgan prosessorlari bilan mos keladigan qilib ishlab chiqishga intiladi. Intel korporatsiyasining prosessorlari va boshqa firmalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan, ularning (x 86 oilasi nomi bilan ataluvchi) analoglari (o'xshashlari) foydalanilgan kompyuterlar mos keluvchi IBM PC kompyuterlari degan umumlashtiruvchi nom oldi. Bu nom Intel 8086 prosessor asosida yig'ilgan birinchi IBM PC shaxsiy kompyuteridan boshlangan. Mos keluvchanlik esa pastdan yuqorigacha mos bo'lishi kerak bo'lgan dasturiy ta'minotga taalluqlidir, masalan, eng eski bo'lgan kompyuter uchun mo'ljallangan dastur eng zamonaviysi uchun ham ishlashi, qo'llanila olinishi kerak. Buning teskarisini isbotlashga urinish xatodir. Intel prosessorlari bazasidagi kompyuterlarga butunlay mos kelmaslikning misoli Apple firmasining Motorola korporatsiyasini prosessorlari (3.17,d-rasm) ishlatgan kompyuterlardir.

Pentium 4 prosessorlari 2000 yili Intel korporatsiyasi 32 razryadli prosessorlarning Pentium 4 nomini olgan navbatdagi avlodini yaratdi. (oldindan bu haqda xabar qildi). 3.18-rasmda Socet-423 ostidagi korpusda prosessorning tashqi ko'rinishi ko'rsatilgan, 3.18 b-rasmda esa Socet-478 ostidagi modernizatsiyalashtirilgan korpus ko'rsatilgan.



3.18-rasm. Pentium 4 prosessorlari: a) Socet-423 ostidagi korpusda; b) Socet-478 ostidagi korpusda.


Bu prosessorlarning asosiy xususiyati ularda bir qator yangi texnologiyalardan foydalanilgan Net Burst mikroarxitekturasining borligidir. Prosessor bilan tashqi dunyo ma'lumot almashish matn tezligini oshirishga imkon bergan eng muhim yangilik: bu bitta takt davomida ma'lumotlarni to'rt marta o'qish qobiliyati bo'ldi, ya'ni tizimli shinning MG c li, keyinchalik esa 533 MGs li chastotasini ishlatish mumkin bo'ldi. Bundan tashqari, buyruqlarni giperkonveerlar ishlovidan o'tkazishdan foydalanilgan, buyruqlarning bajarilishini KESH xotira bilan kuzatish qo'llanilgan va yadroning ikki marta ko'paytirilgan chastotasida (masalan, yadroning takt chastotasi 2,53 GGs bo'lganda buyruqlarni tez

bajarish bloki 5,1 GGs chastotada ishlaydi, bu esa asosan arifmetik va mantiqiy buyruqlardir) ishlaydigan, buyruqlarni tez bajarish bloki qo'yilgan. SHuningdek, allaqachon an'anaviy bo'lib ulgurgan bloklar va texnologiyalar, masalan, buyruqlar bajarilishining dinamikligi, suzuvchi vergulli hisoblar, multimediyaviy ilovalarda foydalaniladigan buyruqlarga ishlov berishning SSE2 ning SIMD kengayishlari yaxshilandi, 2-darajadagi KESH xotira esa ma'lumotlarni uzatishning yanada takomillashganroq tizimiga ega bo'ldi. KESH xotiraning o'zi esa tizimli shinadan boshqa mustaqil shina (ikkita mustaqil D.I.B. shinali arxitektura)ni ishlatadi, bu ma'lumotlarni uzatish kanallarining o'tkazish qobiliyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Intel korporasiyasi foydalanuvchilarga kutilmagan sovg'a (syurpriz)lar berishni yo'lga qo'ygani sababli 2000 yili Northwood yadroli va 22 GGs takt chastotali Pentium-4 prosessori chiqarildi. Uning uchun misli birikmalardan foydalanish bilan qo'llaniladigan 0,13 mkm texnologiyasini qo'llaydilar. Ikkinchi darajadagi KESHning o'lchami 512 K bayt, ushbu satrlar bitilayotgan paytgacha yadrosi: 1,30; 1,40; 1,50; 1,60; 1,70; 1,80; 1,90; 2,20; 2,40; 2,50; 2,53; 2,60; 2,66; 2,80 GGs takt chastota Pentium 4 prosessorlari chiqarilgan, shuningdek, 3 GGs chastotasini ham tez orada bo'ysundirish haqidagi xabarlar ham paydo bo'ldi. Prosessorlarda hajmi 32 Kbayt bo'lgan buyruqlarning ijrosini kuzatish texnologiyasini (Execution Trace cache) birinchi darajadagi, KESH xotira, 256 Kbayt (2GGs va undan past chastotali prosessorlar uchun) yoki 512 Kbaytli (0.13 mkm texnologik jarayonida Advance Transfer Cache arxitekturali) ikkinchi darajadagi KESH xotira ishlatilgan.

Tizimli shina

SHina - bu ma'lumotlarni o'tkazish kanali bo'lib, undan tizimning turli bloklari birgalikda foydalanadilar. Axborot bitlarining guruhlar ko'rinishida uzatiladi. SHina tarkibida so'zning har bir bitiga alohida yo'l (parallel shina) ko'zda tutilishi yoki so'zning hamma bitlari vaqti bo'yicha ketma-ketlik bilan bitta yo'ldan foydalanishlari (izchil shina) mumkin. Rasmda uskunalar tizimli tipik ulanishi ko'rsatib berilgan.



3.19-rasm.

SHinaga ko'plab qabul qiluvchi uskunalar ulanishi mumkin. Boshqaruvchi va manzilli signallarning qo'shilishi, birlashtirilishi shinadagi ma'lumotlar aynan kimga mo'ljallanganini belgilab beradi. Boshqaruvchi mantiq foydalanuvchiga ma'lumotlarni qachon olishi kerakligini ko'rsatish uchun strobasiya qiluvchi maxsus signallarni qo'zg'atadi. Oluvchilar va jo'natuvchilar bir yo'nalishli yoki ikki yo'nalishli bo'lishi mumkin.

SHina negizida tashkil qilish keng qo'llanib kelinmoqda, chunki bunday holda hamma uskunalar markaziy prosessorlar modullarining va kiritish-chiqarish uskuna modullarining uchta shina yordamida qo'shilishining yagona protokolini ishlatadilar.

Markaziy prosessor bilan qo'shilish uchta shina: ma'lumotlar shinasini, manzillar shinasini va boshqaruv shinasini vositasida amalga oshiriladi.


Ma'lumotlar shinasini ma'lumotlarni markaziy prosessor va xotira o'rtasida yoki markaziy prosessor hamda kiritish-chiqarish uskunalarini o'rtasida jo'natish, harakatlantirish uchun xizmat qiladi. Bu ma'lumotlar markaziy prosessorning buyruqlari, shuningdek, markaziy prosessor kiritish-chiqarish portlariga yuborayotgan yoki u yerdan qabul qilayotgan axborotlari ham bo'lishi mumkin.

Manzillar shinasini markaziy prosessor tomonidan xotiraning talab qilinayotgan yacheykasini yoki kiritish-chiqarish uskunasi shina xotiradagi bitta yacheykaga mos keluvchi aniq manzilni yoki tizimga kiruvchi kiritish-chiqarish unsur (element)laridan birini o'rnatish yo'li bilan tanlash uchun ishlatiladi. Boshqaruv shinasini orqali xotiraga va kiritish-chiqarish uskunalariga mo'ljallangan boshqaruv signallari yaratiladi.

Kengaytirish slotlari

Agar shaxsiy kompyuterlarga qo'shimcha qurilmalar o'rnatish imkonini bo'lmaganda edi, ular bugungi kundagidek mashhur va ommaviy bo'lib ketishlari amri mahol bo'lib qolar edi. Unifikatsiya qilingan (bir xillikka keltirilgan) mahsulotlar oyoqni yo siquvchi, yo kattaroq keladigan standart botinkalar singari har qanday iste'molchining individual talablarini qondira olishlari mumkin emas.

Foydalanuvchining shaxsiy muammolarini hal qilish uchun tizimli platalarda kengaytirish slotlari o'rnatilgan (3.19-rasm), ularga aniq ish uchun qo'shimcha platani xuddi "tashqi" videoadapterni o'rnatgandek kiritib, o'rnatib qo'yish mumkin. Masalan, bastakor o'z kompyuteriga yangi kompozitsiya yaratish uchun professional ovoz platasini o'rnatishi mumkin. Ilmiy xodim esa mamnuniyat bilan olamning yaralishi sirini tadqiq qilishda ma'lumotlar to'plashni avtomatlashtirishga yordam beruvchi analog-raqamli aylantirish (ARA) platasini qo'shadi va hokazo.



3.20-rasm. Tizimli platadagi kengaytirish slotlari:

1. - AGP slotiga o'rnatilgan videoadapter;
2. - PCI sloti;
3. - CMOS - xotira batareykasi;
4. - ISA sloti;
5. - ISA slotiga qo'yilgan (o'rnatilgan) ovoz kartasi;
6. - prosessorning kuleri.

ISA slotlari (3.19-rasmda pastdagi eng uzunlari) eng birinchi chiqqan IBM PC kompyuterlarida paydo bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ularning imkoniyatlari axborotga ishlov berish tezligiga bo'lgan muttasil o'sib boruvchi talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmay qoldi, shuning uchun hozir tizimli platalarida turli xil slotlarning to'liq to'plami o'rnatiladi. CHekka (periferiyadagi) yangi uskunalar uchun PCI slotlari (ular markazda) ko'zda tutilgan, videokarta uchun esa AGP sloti (yuqorida) mo'ljallangan. SHuni esda tutish lozimki, garchi tez-tez uchrab turuvchi bir nechta variant mavjud bo'lsa ham, har bir tizimli plata slotlarining miqdori va to'plami faqat unga xos bo'ladi. Albatta, agar o'zingizda yangi kompyuterga qo'yishni xohlagan eski platalaringiz bo'lmasa, sotib olayotgan kompyuterdagi slotlarning

turi haqida ko'p bosh qotirmasa ham bo'ladi. Ko'pchilik hollarda tizimli plataga istalgan paytda siz kompyuter do'konidan sotib olishingiz mumkin bo'lgan 3 tadan 5 tagacha qo'shimcha uskunani o'rnatish mumkin.

Tashqi uskunalarining interfeysi

Kompyuterga turli xildagi tashqi uskunalarni ulash mumkin. Sizga qog'ozda qandaydir hujjatni yoki o'zingiz yozgan hikoyani chop etish zarur bo'lsa, kompyuterga printerni osonlikcha ulashingiz mumkin. SHuni ta'kidlash kerakki, eng sifatli printerlar hatto rangli fotosuratlarni ham chop etishlari mumkin. Bu nusxani fotolaboratoriyadagi aslidan ajrata olmaysiz. Sotuvda yaqinda paydo bo'lgan raqamli fotoapparatlar, foto ishlab berishning butun jarayonini kompyuterda o'tkazishga mo'ljallangan va buning uchun fotoapparatlar raqamli maxsus interfeys, ko'pincha, USB interfeysi bilan ta'minlangandir.

Tashqi uskunalarni turli interfeyslar bilan ulash uchun kompyuterning orqa panelida tegishli ajratish joylari (rez'yomlar) joylashtirilgan, kompyuterlarning eski tiplarida bu ajratish joylari tizimli plataga tasma kabellar yordamida ulangan yoki kengaytirish platalarida joylashtirilgan bo'lar edi. ATX standartlarning paydo bo'lishi bilan interfeyslarning ajratish joylarini tizimli platada joylashtira boshladilar. (3.20-rasm).



3.21-rasm. Tizimli platadagi interfeysning ajratish joylari.

Interfeyslarning standart to'plamiga sichqon va klaviaturani ulash uchun PS/2 ajratish joyi, modem va sichqon uchun 2 ta COM port, printer uchun parallel port kiradi. Zamonaviy tizimli platada ishlab chiquvchilar eski interfeyslarni ertami-kechmi siqib chiqarishlariga umid qilgan USB-uskunalari uchun ikkita majburiy ajratish joyi bo'lishi shart. Agar tizimli plataga ovoz prosessor integrallangan bo'lsa, audio uskunalarni ulash uchun yana uchta ajratish joyi yaratilgan bo'ladi. Bir qator tizimli platalarda telefon simlari va lokal tarmoqni ulash uchun ajratish joylari bor modem hamda tizimli karta o'rnatilgan.

Xotira turlari

Dastavval, konstruktiv jihatdan mikrosxemalarda bajarilgan elektron xotira turlari va ularning asosiy o'ziga xos tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Tezkor xotira (main memory) yoki erkin yo'llash mumkin bo'lgan xotira - bu shaxsiy kompyuterlarda buyruqlarni va joriy vazifalar (dasturlar)ning ma'lumotlarini saqlashning asosiy joyi. Ko'pincha, tezkor xotirani ifodalash uchun "Tezkor eslab qoluvchi uskuna" (OZU-TEqU) yoki inglizcha variantda - Random Access Memory (RAM) atamasini ishlatiladi. Tezkor xotirani yaratish uchun xotiraning almashiluvchi modullariga qalaylangan, mikrosxemalar qo'llaniladi, bu modullar o'z navbatida tizimli platadagi ajratish joylariga o'rnatiladi. OZU (TEqU) kompyuterdagi manzilga yo'naltirilgan tezkor xotira, bunda kompyuterning unumdorligi aynan prosessor bilan tezkor xotira mikrosxemalari o'rtasida ma'lumot almashishning tezligiga bog'liq bo'ladi. Tezkor mikrosxemalar juda qimmat bo'lgani uchun shaxsiy kompyuterning OZU si uchun dinamik xotiraning mikrosxemalaridan (bu kompyuter do'konlarida sotiluvchi SIMM va DIMM modullaridir) foydalaniladi, ammo ularning o'ziga xos tomoni bor. Taxminan, har 2 oyda ularga yozilgan ma'lumotlarni regenerasiya (tiklash) siklini o'tkazish talab qilinadi. SHuni ham ta'kidlash kerakki, OZU mikrosxemalarining eng katta nuqsoni shundaki, kompyuterning ta'minoti o'chirib qo'yilganda ular joylashgan hamma ma'lumotlar yo'qolib qoladi. SHaxsiy kompyuterdagi OZU ning sig'imi 1 G bayt va undan ortiq kattalikka yetishi mumkin.

KESH xotira (Cache Memory) yoki o'ta tezkor xotira - bu tezkor xotiraning ko'rinishlaridan biri bo'lib, uning uchun statik xotiraning qimmat turuvchi mikrosxemalari ishlatiladi. KESH xotiraning kompyuterda asosiy vazifasi - vaqtning joriy davrida ishlov berilayotgan dasturlar kodlarini va ma'lumotlarini vaqtincha saqlash joyi bo'lib xizmat qilishdir. YA'ni u axborotni saqlovchi, ularga ishlov beruvchi uskunalar, masalan, prosessor va OZU, vinchesterning mexanik qismi va hokazolar o'rtasida bufer bo'lib xizmat qilishga mo'ljallangan. Mo'ljaliga va prosessorning tipiga qarab KESH xotiraning hajmi, masalan, 8 va 16 K bayt, 128 va 256 K bayt kattalikni tashkil etishi, ba'zi hollarda esa 2-3 M baytgacha yetishi mumkin. Bundan tashqari, KESH xotira darajalarga bo'linadi va KESH xotiraning har

bir darajasi uchun muvofiq keluvchi va bir-biridan konstruksiyalari hamda harakat tezligi bilan juda farqlanuvchi o'z mikrosxemalari ishlatiladi.

Pentium toifasidagi prosessorning, u ichki KESH, boshlang'ich KESH yoki birinchi darajadagi (Level 1 Cache) KESH ham prosessor o'rnatilgan kristallda joylashgan. Bu KESHning mo'ljallangan asosiy vazifasi joriy onlarda (vaqtning o'tayotgan daqiqalarida) prosessorda ishlov berilayotgan buyruqlar va ma'lumotlarni saqlashdir.

Prossessor ichki KESH xotirasining boshqa turlaridan eng muhim farqi shundaki, bunda xotiraning yacheykalariga murojaat (ulardan foydalana olish) prosessor yadrosining takt chastotasida ro'y beradi. Bunday tipdagi KESHning paydo bo'lishi prosessor yadrosining 486 gersli chastotadan boshlab tashqi sinxronlash chastotasidan oshib ketuvchi chastotada ishlashi bilan taqozo etilgan. SHuni ta'kidlash lozimki, eski prosessorlarda ichki KESH bo'lmagan, "KESH xotira" atamasi esa tashqi KESHning mikrosxemalariga taalluqli bo'lgan. Bundan tashqari, birinchi darajadagi KESH uchun zamonaviy prosessorlarda assosiativ yoki yig'ma-assosiativ xotirani ishlatadilar, unda xotiradan ma'lumotlarni olish xotira yacheykalarining mutlaq manzillari bo'yicha emas, balki ularning mazmuniga ko'ra ro'y beradi, bu esa prosessor KESH tizimining ishini ancha tezlashtiradi. To'g'rirog'i, bunday KESHni prosessorning so'roviga ishlov beruvchi aniqrog'i bu so'rov bo'yicha javob tayyorlovchi, ma'lumot tayyorlab beruvchi (masalan, xuddi Microsoft Acces dasturi ishlaganidek) uncha katta bo'lmagan ma'lumotlar bazasi bilan solishtirish mumkin.

Ikkinchi KESH yoki ikkinchi darajadagi KESH (Level 2 Cache) - bu yo tizimli platada o'rnatiladigan tashqi KESH yoki prosessor joylashgan shu kristallning o'zida joylashgan, sezilarli hajmli KESH xotiradir. Pentium II prosessoridagidek variant ham qo'llanilishi mumkin. Bunda ikkinchi darajadagi KESH prosessorning kartridjini ichidagi alohida kristallda joylashgan bo'ladi. Ikkinchi darajadagi KESH 126 K baytdan 1-4 M baytgacha hajmga ega bo'lgani uchun prosessorning tayyorlanishini arzonlashtirish uchun u, masalan, prosessor yadrosi chastotasining yarmida ishlashi mumkin. Bundan tashqari, unda xotira yacheykalarini tashkil qilish usuli tezkor xotira uchun qabul qilinganidan farqlanishi mumkin.

Uchinchi darajadagi KESH (Level 3 Cache) server ilovalari uchun mo'ljallangan ayrim prosessorlarida bo'ladi, xolos. Zamonaviy kompyuterlarda bir vaqtning o'zida ikkinchi darajadagi KESH bo'lgan tashqi KESH eski kompyuterlarda tizimli platada joylashgan va prosessorning tizimli shinasi chastotasida masalan, 33 yoki 66 MGs da, ishlaydi. 384, 486 MGs chastotali prosessorli kompyuterlarda va Pentiumning birinchi avlodlarida KESHning ishlash tezligi tezkor xotira mikrosxemasining tezkor harakatidan juda kam farqlanadi, unumdorlikdagi yutuq esa tezkor axborotning mikrosxemalari regenerasiya siklini bajarayotgan paytlarda prosessorning turib qolishiga barham berilganligi evaziga qo'lg'a kiritiladi.

"Doimiy eslab qoluvchi uskuna" (PZU - DEqU) yoki Read Only Memory (ROM) termini ko'pincha ma'lumotlarini o'qish mumkinu, ammo ularni o'zgartirish mumkin bo'lmagan mikrosxemalarni belgilash uchun ishlatiladi. Har bir shaxsiy kompyuterda, albatta, bir nechta PZU (DEqU) mikrosxema mavjud. Masalan, kompyuter yoqilganida birinchi bo'lib 1-2 M bayt hajmli PZU mikrosxemasiga yozilgan BIOS dasturi ishga tushiriladi. PEU mikrosxemalarning harakatlari tezligi tezkor xotiraning mikrosxemalaridagiga qaraganda bir daraja (pog'ona) pastroq.

SHuni ta'kidlash lozimki, PZU mikrosxemalarining ko'plab turli xil tiplari ishlab chiqilgan - ularning bir xillariga ma'lumotlarni faqat bir marta yozish mumkin, boshqalari esa axborotning ko'plab marotaba qayta yozilishiga ham chidaydi. So'nggi vaqtlarda esa PZU larda axborotni 1 million martagacha qayta yozishga imkon beruvchi flesh xotira mikrosxemalarini ishlatish eng ko'p darajada ommaviylashdi.


Flesh xotira xaritalari noutbuklar ommaviylashganidan so'ng paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda flesh xotira xaritalari faqat kompyuterlardagina emas, balki uyali telefonlarda va raqamli fotoapparatlarda ham borgan sari ko'proq qo'llanilmoqda. Konstruksiyasi jihatidan ular oddiy taksafon kartalariga o'xshab ketadi, ammo ularga qaraganda kamyobdir. Kompyuterga ulash uchun flesh xotira xaritasining bir uchida yoki tekisligida ajratish joyi (raz'yom) joylashgan. Konstruktiv ijrosidan qat'i nazar, ularning ichida flesh xotiraning hatto tok quvvatining kuchlanishi bo'lmagan paytda ham axborotni uzoq vaqt davomida saqlay oladigan mikrosxemalari joylashgan.

Pen Drive yoki Flash Drive uskunalari USB interfeyslari bilan ta'minlangan va flesh xotira xaritalarining yangi variantlari hisoblanadi. Ularda vinchesterning disk maydoni dasturiy ravishda


modellashtirilgan. Agar flesh xotirani stol ustiga qo'yiladigan kompyuterga ulash uchun maxsus qurilma kerak bo'lsa, unda masalan, Flash Drive USB standart interfeysiga ulanadi, amaliyot tizimi esa bunday flesh xotirani olinuvchi vinchester o'rniga qabul qiladi. Foydalanuvchi uchun vinchesterdan va Flash Drive uskunasiidan foydalanishda deyarli farq yo'q. Bunday flesh xotira modellarining so'nggilarini sig'imi 1 G baytdan oshiq, bu ularda videofilmlar, musiqiy yozuvlar, dasturlar va arxivlarni saqlash imkonini beradi. Axborotni saqlash uchun aylanuvchi mexanik tashuvchilar ishlatiladigan esda saqlab qoluvchi uskunalariga e'tibor qarataylik.

Vinchester yoki qattiq magnit disklarda axborot to'plovchi ta'minotga ulanganda saqlanadigan axborotning katta hajmlarini uzoq saqlash uchun ishlatiladi. Vinchester konstruksiyali bu to'g'ri burchakli quticha bo'lib ichkari yuzasida magnit qatlami joylashtirilgan, katta tezlikda alyumin yoki shisha disklar aylanib turadi. Ma'lumotlarni o'qish va yozish magnit disklarining yuzasidan mikronning bo'laklari uzoqlikdagi masofaga uchib yuruvchi magnit golovka (boshcha)lari yordamida amalga oshiriladi. Vinchester mexanik uskuna bo'lgani sababli undagi axborotga yetish uchun ketadigan vaqt 034 dagi axborotga yetish uchun sarflanadiganidan vaqtdan deyarli ming marta ko'pdir. Zamonaviy vinchesterlarning sig'imi 100 G baytdan oshiqdir.

Egiluvchan magnit disklar ma'lumotlarni arxivlashtirish yoki axborotning bir kompyuterdan boshqasiga ko'chirish uchun mo'ljallangan. 3 va 5 dyyumli, 1,44 va 1,2 M bayt saqlashi mumkin bo'lgan magnit diskleri (boshqa variantlari kamdan-kam uchraydi) eng eski tur disklerden hisoblanadi. egiluvchan magnit disklar axborotni o'qish va yozish uchun magnit boshchani disk yuzasi bilan bevosita kontakt bo'lishini talab qilganlari uchun ular ayni kunlarda qo'llanilayotgan axborot to'plovchilar orasida axborotga yetish uchun eng kam vaqt sarflaydi.



3.22-rasm. 5,25 diametrli floppi-disk.



3.23-rasm. 3,5 diametrli floppi-disk

Floppi-disklarni qizdirish, kuchli elektr magnit maydonlari yaqiniga joylashtirish (axborot o'chib ketadi) mumkin emas. Bunday disklar bilan ehtiyotkorona muomala qilish lozim, hech qanday holatda ham ularni qayirtirish, bukish mumkin emas. Ma'lumotlarning yaxshi saqlanishi uchun disketlarni kuchli magnitlardan va videomonitorlardan uzoqroqda saqlashga harakat qiling. SHuningdek, diskning yuzasiga barmoqlarni tekkizish mumkin emas, chunki doimo terida bo'ladigan yog' bilan uni iflos qilib qo'yishingiz mumkin.

Disketaning ustki yuzasiga, odatda, yorliq yopishtirilgan bo'lib, unda siz disketada qaysi dasturlar yoki ma'lumotlar borligini qayd etib qo'yishingiz mumkin. Disketaning yorlig'iga belgilar qo'yish uchun yaxshisi yumshoq qalam yoki flamasterdan foydalangan ma'qul, lekin sharikli avtoruchkani ishlatib bo'lmaydi, chunki u chiziqlar qoldiradi va disketani buzishi mumkin. Agar siz yorliqdan eski belgilarni lastik yordamida o'chirayotgan bo'lsangiz, lastikning uvoqlari magnit boshchalari uchun qilingan teshiklarga tushib qolmasligini nazorat qilib turing.

Floppi -disklarning sig'imini qutidagi belgilardan aniqlab olish mumkin. Ko'p uchraydigan disketlar uchun ishlatiladigan belgilarni keltiramiz.

3.1-jadval

Belgi	Floppi -diskning diametri dyyumlari	Floppi -diskning sig'imi K bayt
5.25" 2S/2D	5,25	360 Kbayt
5.25" 2S/HD	5,25	1,2 Mbayt

3.5" 2S/2D	3,5	720 Kbayt
3.5" 2S/HD	3,5	1,44 Mbayt

Optik disklar yoki kompakt-disklar shaxsiy kompyuterlarda ishlatiladigan axborot tashuvchilarning eng zamonaviy turidir. Bugungi kunda optik diskarning bir nechta tipidan foydalaniladi. Foydalanuvchilar orasida eng ko'p mashhurlikka musiqiy diskarning avlodlari, sig'imlari 650 yoki 700 Mbayt bo'lgan kompakt disklar, shuningdek 4,7 Gbayt sig'imli DVD diskleri egadir. Bunday optik diskarga axborot diskning ichidagi qatlamga nuqta ko'rinishida yoziladi. Axborotni yozish va o'qish uchun yarim qtkazgichli lazer ishlatiladi. Bundan tashqari, 250 va 640 Mbaytli magnit optik disklar ham ma'lum bir mashhurlikka egadir. Optik diskarning boshqa formatlari asosan diskarning yoki o'qish-yozish uskunalarining narxi qimmatligi tufayli uncha mashhur emas, keng tarqalmagan.

Albatta, axborot to'plovchilarning boshqa turlari ham mavjuddir, ammo ular

yo shaxsiy kompyuterlarda ishlatilmaydi, yoki ma'naviy jihatdan eskirib qolishgan. Faqat ayrim hollarda magnit tasmadagi to'plovchilar - strimerlarni uchratish mumkin. Ularda axborotning katta hajmini saqlashning narxi eng pastdir. (agar faqat shaxsiy kompyuterlarda ko'pincha ishlatiladigan strimerlarning modellarini hisobga oladigan bo'lsak, bu dalil ancha bahstalabdir). Strimerda magnit tasmasi xuddi kassetali magnitafonlardagidek kassetalarda joylashgan.

Kompyuterning konfiguratsiyasi

qo'limizga qaysidir kompyuter do'konining prayersvarag'ini olamizda va o'zimizga eng arzon kompyuterga buyurtma berishga harakat qilib ko'ramiz. Biz buni "Kompyuterning konfiguratsiyasi" tushunchasi ortida nima borligini tushunish uchun qilib ko'ramiz. Ishimizning natijalarini 3.1-jadvalga yig'amiz.

Bizning kompyuter konfiguratsiyamizda birinchi band bo'lib ta'minot (iste'mol) blokli Mini Tower ATX korpusi keladi, bu esa tizimli plata ATX standartida bo'lishi kerakligini bildiradi.

Oldin prosessor va boshqa unsurlarni hal qilib olish kerakdek tuyulishi mumkin, ammo kompyuterning arzon variantlari uchun bu unchalik to'g'ri emas.

YAxshi korpusning narxi kompyuter qiymatining sezalarli qismini tashkil qiladi va u tizimli plataning qiymatiga tenglashib qoladi. Bundan tashqari, korpusning tipi plataning u yoki bu standartini ishlatish imkoniyatini belgilaydi. To'g'ri, avval tizimli platani, keyin korpusni tanlash ham mumkin, ammo natija o'sha-o'sha bo'ladi-yu, faqat ortiqcha muammolar qo'shiladi.

Ma'ruza-4. Asbob va uskanalar. Aktiva va passiv profilaktika tadbirlari.

Reja

1. Doim ishlatiladigan asboblari
2. Qotirish detallari
3. Payvandlash asboblari
4. O'lchash asboblari

SHK mayda kamchiliklari va tamirlash ishlarini bajarish uchun bir nechta asosiy asbob uskanalarga ega bo'lsangiz yetarli. Ammo bu masalaga kasbiy nuktayi nazaradan qaromoqchi bo'lsangiz, tamirlash ishlari bilan jiddiy shug'illanmokchi bo'lsangiz bunday ishlar uchun, kamchiliklarni tez topish va bartaraf etish uchun maxsus asbob-uskanalarga ega bo'lishingiz ketak bo'ladi. Tamirlash ishlarida ishlatadigan asbolarni bir necha guruxlarga ajratish mumkin:

- ◆ qismlarga ajratish va yig'ish uchun oddiy asbob-uskinalar to'plami;
- ◆ qurilmalar va dasturlarni tashxis qilish, kompyuter komponentlarini test qilish asbolari;
- ◆ quchlanish va qarshiliklarni o'lchash asboblari: raqamli multimetr, yakka impuls chiqarish generatorlari;
- ◆ kimyoviy preparatlar (kontaklarni artish rastvorlari), sovutish suyukligi bilan pulvirizator va kompyuter detallarini changdan tozalash uchun siqilgan gazli ballon (xavoli);

- ◆ kontaktlarni aritish uchun tamponlar to`plami;
- ◆ maxsus asbob-uskinalar to`plami (masalan, mikrosxemalarni(chiplar) almashtirish uchun asbob-uskinalar to`plami);
- ◆ ketma-ket va parallel portlarni tekshiruvchi test raz`emlari;
- ◆ SIMM, DIP chiplariga uxshash xotira modul funksiyalarini testlash uchun asbob-uskinalar;
- ◆ kompyuter elektr ma`nba blokini tekshiruvchi qurilmalar.

SHu bilan birgalikda ayrim vaqtlarda payvandlash asboblari xam kerak bo`lishi mumkin.


Doim ishlatiladigan asboblari

Servis xizmatlari ko`rsatish asboblari nisbatan arzon va sodda. SHu soxa mutaxassisining asboblari bir kutichaga xam sig`ishi mumkin. Agar avtomobil tamirlovchi ustasining asbo-uskanalarinining narxi (\$5000-\$10000) bilan elektron vostalarini tamirlovi ustasining asbo-uskanalari narxi (\$20 - \$500) bilan solishtirsak bu to`plam 5- 10 barobar arzon.


Bu mavzuda kompyuter platalari va bug`unlarini ta`mirlashda ishlatiladigan asbob-uskinalar xaqida gap yurtamiz. Bu komplektda:

- ◆ 3/16" gayka kaliti;
- ◆ 1/4" gayka kaliti;
- ◆ kiskina plyus(Phillips) simon otvertka;
- ◆ kiskina tappak (oddiy) otvertka;
- ◆ o`rtacha plyus(Phillips) simon otvertka;
- ◆ o`rtacha tappak (oddiy) otvertka;
- ◆ uyadan mikrosxemalarni olish uchun moslama;
- ◆ uyaga mikrosxemalarni o`rnatish uchun moslama;
- ◆ pinset;
- ◆ detallarni vaqtincha siquvchi moslama;
- ◆ Totx tipidagi T10 va T15 otvertkalar;

Gayka kalitlari olti qirali vintlarni bo`shatish va qotirish uchun ishlatiladi. Bu vitlar bilan kompyuter sitemalar blokining kojuxi, adapter platalari, disk yurtuvchilar, elektr ma`nba bloki qotiriladi. Otvertkaga nisbatan gayka kaliti bilan bu ishlarni bajarish ko`layroq. Ko`p xollarda ishlab chiqaruvchilar olti qirra kalpokchali vintlar o`rniga oddiy yoki plyus shaklidagi vintlar chiqarishlari sababli siz otvertkadan xam foydalanishingiz mumkin.



4.1.расм.Уядан микросхемаларни олиш



Ris. 17.7. mayda detallarni vaqtincha siquvchi moslama

Uyadan mikrosxemalarni olish va qo`ish moslamalari (4.1.rasm) mikrosxemalarining oyokchalariga shikast utkizmasdan olish va qo`ish uchun ishlatiladi. Ko`rsatilgan moslama mikrosxema bo`ylab kuchni teng taqsimlaydi va uni las ketish va sinishdan asraydi.

Pinset va mayda detallarni vaqtincha siquvchi moslama yordamida vint, peremichka va mayda detallarni ushlash va olish mumkin. Ayniksa bir bir mayda detal kompyuter ichiga tushib ketsa kompyuterni parchalamay pinsept yordamini olish kulay bo`ladi.

Nixoyat yulduz simon Togx tipidagi otvertka maxsus qalpokchali vintlar bilan ishlaganda kerak bo`ladi. Bunday qotirish vositalari Compaq firmasi tomonidan ishlab chiqilgan kompyuterlarida ishlatiladi.

YUqorida aytilgan to`plamga yana qo`shimcha qilib:

- uzin lavli passatija;
- zajimlar;
- simlarni qirqish va tozalash moslamalari;
- metrik gayka uchun kalitlar;
- tiski va zajimlar;
- napilnik;
- kichkina fonarcha.

qo`shsak bo`ladi

Passatija yordamida mikrosxema oyoqchalari va kontakilarini to`g`rilash, paremo`chkalarni ko`yish va olish, kabel va razyomlarni montaj qilish xamda kichkina detallarni ushlab turishingiz mumkin..

Zajim komponentlar uchini siqishg`a va ushlashga kulaylik yaratadi.

Simlarni qirqish va tozalash moslamalari pichoq yoki skalpeldan qo`ra foydalanish qo`layliroq.

Metrik gayka uchun kalitlar yevropa va aziyada ishlabchiqqarilgan kompyuterlar ishlatiladi, chunki ular metrik kotirish detallaridan foydalanishadi.

Tiski yordamida raz`emlarni montaj etish va kabellarga kerakli kiyofani berish maksadida bukish mumkin; tiski detallar ustida ayrim operasiyalarni bajarishda xam kulay bo`ladi..

Napilnik o`tkir qirralarga ishlov terishda ishlatish mumkin.

Fonarcha kompyuter ichida ta`mirlash ishlarini bajarganda yoritish uchun ishlatiladi.

Qotirish detallari

Endi kompyuter detallari va bug`unlarini qotirishda ishlatiladigan qotirish dellari(vint, gayka, bolt va x.q.) xaqida gap yurtamiz.

Qotirish detallari tiplari. Kompyuterni ta`mirlash vaqtida siz xar-xil qotirish detallari bilan uchrashishingiz mumkin.

Ko`p kompyuterlarda qotirish vositasi sifatida olti qirali vinlar ishlatiladi. Bu vintlar uchun 3/16" va 1/4" gayka kalitlari to`g`ri keladi. Bunday vintlardan IBM firmasida ishlab chiqilgan PC, XT va AT foydalaniladi. Boshqa firmalar, masalan Compaq qo`prok Totx turidagi (qalpoqchaisda yulduz simon teshik) foydalanishadi. Bu vitlarni bo`shatish uchun uchi yulduz simon otvertkalar T-8, T-9, T-10, T-15, T-20, T-25, T-30, T-40 ishlatiladi. Bu turdagi vintlar «sexirli» deb xisoblanadi, ular muxim, fakat maxsus ustaxonalarda ochilishi mumkin bo`lgan detallarni qotirilishida ishlatiladi. Qo`p ishlab chiqaruvchi firmalar keng tarqalgan standart vitnlardan foydalanishadi. Bu vintlar Totx vintlariga nisbatan orzon, ammo kompyuter uchun xaft to`g`dirishi mumkin, Juda orzon vintlar otverta ostida uqalanib sistema platasi ustiga tushib qolishi mumkin. SHuning uchun o`zingizga ortiqcha muammo yaratmaslik uchun arzon vintlardan foydalanmang.

*Dyuym va metrik o`lcham kattaliklari.* Kompyuterning qotirish detallari ikki xil o`lchamli bo`lishi mumkin: dyuym va metrik. IBM firmasi dyuymli qotirish detallaridan, yaponiya va tayvandda ishlab chiqarilgan kompyuterlarda mektrik standartlaridagi detallardan foydalanishadi. Bu muammo bilan asosan qattiq disk yurtuvchisin almashtirishda duch kelinadi. YAngi disk yurtuvchini sotib olganingizda albatta unig vqotirish vint va gaykalarini xam olishga unitmang.

Payvandlash asboblari

Uzilgan simlar va yomon kontaklarni tiklash, plataga yangi qurilma o`rnatish, demontaj ishlarini bajarganimizda, yangi peremichkalar qilganimizda payvandlash asboblaridan foydalanishga to`g`ri keladi.

Bugungi kunda kompyuterni ta'mirlash oddiy bloklarni almashtirish bilan bajarilishiga qaramasdan ayrim vaziyatlarda (klaviatura kabeli extiyotqorsiz xarakat tufayli shnuri shixastlangan bo'lsa) payvandlash asboblariidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Ko'p tizimli platalarga parallel va ketma-ket portlariga o'xshab qurilmalar payvandlash orqali ulanadi. Ko'p qurilmalar oddiy saqlag'ich vazifasini bajarish uchun o'rnatiladi, ular tizimli platani tashqi shixastlardan asrashga muljallangan. Agar o'ta katta statistik yuklanish yoki qisqa tutashuv sodir bo'lsa kuygan saqlag'ichni almashtirish yo'li bilan tizimni tiklash mumkin.

Kichik buzilishlarni tuzatish uchun (yuqorida aytib o'tilganlarga o'xshash) payvandlash asbobini quvvati 25 Vt. oshmasligi kerak. Quvvati 30 vattad katta payvandlash asboblari komponentlar yoki plataga qizish orkali ziyon utkazishi mumkin. Kichik quvvatli asbob bilan xam, issiklik energiyasini o'ziga tortib oluvchi qurilma bilan foydalanib, extiyotqarlik bilan va tez ishni bajarish kerak bo'ladi. Issiklik energiyasini o'ziga tortib oluvchi qurilma - metaldan yaratilgan asbob, u ortiqcha issikligini o'ziga tortib olib, kurilmani qizib ketishdan saqlab qoladi. Bunday saqlagich sizda bo'lmas siz bir juft zajimlardan xam foydalanishingiz mumkin.

Komponentlarni demontaj qilish uchun sizlarga payvandlash moddalarini tortib olish uchun «shimiruvchidan» foydalanishingizga to'g'ri keladi. Bu moslama oddiy shprisga o'xgo'b ketadi. Agar biror bir detalni olishingiz kerak bo'lsa payvandlash asbobi bilan platanig orqa tomonidan kontaktga tegizing, payvandlash moddasi erigandan sung «shimiruvchi» uchini shu joyga olib borib moddani tortib oling. Doim moddani plataning orqa tomanidan qizdiring va «shimirib» olishga odatlaning.

Payvandlashni o'rganmoqchi bo'lsangiz oldin eski, ishdan chiqqan platada mashq o'tkazing. Oldin undagi xamma detallarni oling. Detailarni kamrok qizib ketmasligiga diqqatingizni qarating. Payvandlash moddasini tez, vaqtga qarab eriting. Iloji boricha bu ishni tez bajarishga xaraqat kiling. Endi olingan detallarni o'rniga payvandlang. Siz payvan qilgan kontaktingiz iloji boricha firma tomonidan payvand kilganga uxshatishga xarakat qiling.

O'lchash asboblari

Ayrim vaqtlarda plata yoki komponentlarni tekshirish vaqtida o'lchash asboblari va maxsus moslamalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Ular nisbatan orzon va foydalanish uchun sodda bo'ladilar. Kompyuter tekshirish uchun multimetr va test-raz'yomlar zarur buladi. Test raz'yom ketma-ket va parallel portlarni, ularga ulanadigan kabellarni tekshirishga yordam beradi. Multimetr bilan har hil parametrlarni ulchash mumkin, misalan: sxemaning har hil nuqtalarning kuchlanishlari, eletr toki ma'nbalar blokdan chiqadigan kuchlanish, plata o'tkazgichi yoki kabelning butunligini aniqlash mumkin. Elektr tarmog'iga ulangan rozetka kontaktlari to'g'riligini tekshirishda xam tester yordam berishi mumkin.

Test-raz'em. Ketma-ket va parallel portlarni tekshirish uchun ishlatiladi. Agar uni ulash kabellari o'rniga o'rnatilsa u tekshirish vaqtida signal chiqaradi. Signal turiga qarab port to'g'ri yoki noto'g'ri ulanganligini aniqlash mumkin.

Test-raz'emlarning bir necha turi mavjud. Ketma-ket portlar uchun 9 va 25-kontaktli, parallel portlar uchun esa 25-kontaktli. Bunday test-raz'emlarni bir necha firmalar ishlab chiqadilar, shu jumladan IBM firmasi xam. Bu firma universal, ketma-ket va parallel portlarni tekshiruvchi, bir korpusda uchta amalni bajaruvchi asbob yaratishgan.

Multimetr. Ko'p xollarda ta'mirlash ishlarini bajarish vaqtida kuchlanish va qarshiliklarni o'lchashga to'g'ri keladi. Buni bajarish uchun raqamli yoki analogli multimetrlar ishlatiladi. Ularning xar birida kamida, tekshiriladigan sxemaga ulanish uchun, ikkita o'lchash chiqishlari mavjud. Multimetrni o'laganimizda maxsus shkalada tekshiradigan sxemaning yoki qarshiligi, to'g'ri yoki o'zgaruvchan kuchlanishi qo'rsatiladi. Ularning yordamida tok kuchi, kuchlanish, sig'im, chastota, trazistor parametrlarini aniqlash mumkin.

Xar bir kattalik uchun bir nechta ulchash diapazonlari mavjud. Masalan doimiy tokning kuchlanishi o'lchash uchun shkalanig yuqori chegaralari 200 mV, 2, 20, 200 va 1000 V bo'lishi mumkin. Kompyuterlarda Q5 va Q12 V ishlatilishi sababli o'lchash uchun shkalanig yuqori chegarasi 20 V bo'lsa yetarli. Kamrok chegaralarda asbobishdan chiqishi mumkin.

Tarmoq rozetkasining testeri – juda xam foydali asbob. Asbob rozetkalarni tekshirish uchun ishlatiladi. U rozetkaga suqulganda uchta svetodiod yonishi orqali rozetka to'g'ri ulanganligini aiqlanadi.

SIMM xotira modulining testeri. Bu asbob SIMM modullaring xolatini aniqlab berish uchun ishlatiladi. Xotira modulini tashxis dasturlari yordamida xam tekshirish mumkin. Amo bu dasturlar modulga axborotni yozish va o'qish imqoniyatlarini tekshirishdan boshqa amallarni bajarmaydi.

SIMM xotira modulining testeri aytilgan amallardan tashqari:

- ◆ xotira modulining tipi;
- ◆ xotira modulining tezligi;
- ◆ xotira moduli juvtlikni nazorat qilishi yoki juvtlikni nazorat qilish emulyasiyasini bajarayotganini aniqlash;
- ◆ regenerasii va tezlik vaqtinianiqlash;
- ◆ yakka bitlarda nosozliklarni aniqlash;
- ◆ kuvvati va ishdan chiqish vaqtidagi shovkinlarni aniqlash;
- ◆ payvandlanmagan kontaktlar va sifatsiz payvand natijasida xosil bo'lgan qisqa tutashuvlarni topish;
- ◆ ishdan chiqish vaqtini aniqlag;
- ◆ qiymatlarni saqlashda yo'lga qo'yilgan xatolarni aniqlaydi.

Oddiy dasturlar yordamida bunday tashxis o'tkazib qilib bulmaydi.

Maruza-5. Mavzu: «Apparat vositalarini tashxisi».

Reja:

1. Tashxis vositalari va texnik xizmat.
2. Ishga tushirilganda o'zini-o'zi tekshirish (POST).
3. POST prosedurasi tomonidan beriladigan tovush kodlari.
4. POST prosedurasi tomonidan monitor ekraniga chiqariladigan ma'lumotlar.
5. Tashxis vositalari va texnik xizmat.
6. Ishga tushirilganda o'zini-o'zi tekshirish (POST).
7. POST prosedurasi tomonidan beriladigan tovush kodlari.
8. POST prosedurasi tomonidan monitor ekraniga chiqariladigan ma'lumotlar.

Tashxis vositalari va texnik xizmat qo'rsatish

Sistema bir tekizda ishlamaganda yoki uni modernizatsiya qilganingizda diagnostik dasturlar juda xam zarur bo'ladi. Oddiy amallar bajarganingizda xam, maslan yangi plata o'rnatmoqchi bo'lsangiz yoki kompyuterni «qotib qolishi» kaysi apparat vositasi orqali bo'layotganini sababini aniqlamoqchi bo'lganingizda xam sizga adabiyotdalarida yoki apparat vositasining instruksiyasida yozilgan axborotdan xam qo'proq ma'lumot kerak bo'lishi mumkin. Tashxis dasturlari butun tizim yoki uning bir qisminigina tekshirish uchun imqoniyat yaratadi.

Tabiiyki, tizimni ekspluatatsiya kilgandanda unga texnik xizmat qo'rsatish kerak bo'ladi. Muntazam ravishda xizmat qo'rsatish – kompyuterni uzoq va ishonchli ishlashini g'arovidir.

Xozirgi kunga xar xil tashxis dasturlari mavjud: POST, tizining utilitalari va kompyuter yoki ishlab chiqaruvchidan olingan qo'shimcha dasturlar.

Apparat vositalarini tashxis dasturlari.

Qo'p tashxis dasturlar apparat vositasini turini aniqlash uchun muljallanagan bo'ladi. BU dasturlar apparat vositasi bilan birga ta'minlanadi.

SCSI-adaptlarning ko'pida ichiga o'rnatilgan BIOS ga ega bo'ladilar. Ular yordamida shu adapterlarni sozlash va tashxis qilish mumkin. Masalan Adaptec firmasi tomonidan ishlab chikilgan SCSI-adaptlar SCSISelect dasturi bilan ta'minlanadi. Bu dastur yordamida adapter sozlash va ishchanligin tekshirib olish mumkin.

Ayrim tarmoq platalarini ishlab chiquvchi, masalan SMC va 3COM, firmalar xam shunday dasturlar bilan maxsulotini ta'minlaydilar. Bu dastur yordamida shina interfeysini, ona platasida o'rnatilgan xotirani nazorat qilish, vektor o'zishlarni tekshirish xamda siklik test o'tqazish mumkin.

Ishga tushirilganda o'zini-o'zi tekshirish (POST)

1981 yil IBM firmasi SHK ishlab chiqishni boshlaganda ularda oldindan kompyuterning ishonchligi oshirish usullari ishlatilishi boshlandi. Bunday tadbirlilik xali kech qanday kompyuterlarda ishlatilmagan edi. Bu yerda POST dasturi va xotirani juftligini tekshirshi nazarda tutilmoqda. IBM rusimli kompyuterlarni ishga tushirganimizda ular birdaniga tizimni yuklab ishlab ketmasligini sababi mana shu tashxis olib borilishidadir. Kompyuterni «Power» tugmasi bosilganda avtomatik ravishda uning asosiy qo'rilmalari: marqaziy prosessor, tezqor xotira, asosiy kirtish va chiqarish qurilmalari ishchanligi tekshiriladi. Xato topilgan zaxodda og'oxlantirilish yoki xato to'g'risida xabar beriladi.

POST dasturi tashxisni to'la qilmasada, u kompyuter qurilmalarini jiddiy shixatlanishdan ximoya qilishda birinchi vositasi vasifasini bajaradi. Agar shixatlanish jiddiy bo'lsa sistema yuklanishi to'xtatiladi va xato xaqida xabar beriladi. Bunday xatolar fatal (fatal error) deb ataladi. POST dasturi xatolar xakida uchta usul orqali xabar berishi mumkin: tovushli; monitor ekraniga xabar chiqarish; xatoning 16-lik kodini kirtish-chiqarish porlariga jo'natish.

POST prosedurasi tomonidan beriladigan tovush kodlari.

POST dasturi xatolarni aniqlaganda o'ziga xos tovush signallarini chiqara boshlaydi. Bu tovushlar yordamida biz xatoning turi va shixastlangan joyini aniqlab olishimiz mumkin. Agar kompyuter yokilganidan so'ng yaroqli xolatda bo'lsa biz bitta qisqa siganal eshitamiz. Biror joyi shixastlangan bo'lsa bir necha seriya signallarini eshitishni boshlaymiz. Tovushlar seriyasi sistemada o'rnatilgan BIOS versiyasiga bog'liq. Jadvalda IBM va unga moslashga kompterlarda chikariladigan shovush kodlarini qo'rishimiz mumkin.

Tovush signallari	SHixast yetqazilgan joy
1 qiska	POST dasturi ishni bajarib bo'ldi, tizim yaroqli xolatda
2 qiska	Xato mavjud: xato kodi ekranga chiqarildi
Signal yo`q	Blok pitaniya, tizimli plata
Uziliksiz signal	Blok pitaniya, tizimli plata
Qisqa takrorlanuvchi signallar	Blok pitaniya, tizimli plata
1 uzun, 1 qiska	Tizimli plata
1 uzun, 2 qiska	Displey adapteri (MDA, SSA)
1 uzun, 3 qiska	Kengaytirilgan grafik adapteri (ESA)
3 uzun	Klaviatura platasi 3270

POST prosedurasi tomonidan monitor ekraniga chiqariladigan ma'lumotlar.

XT, AT, PS/2 va IBM-mos kelgan kompyuter modellarida POST dasturi tezqor xotirasini test natijalarini monitor ekranda tasvirlab boradi. Muvofakiyatli testdan utganda ekranga chiqarilan oxirgi son - xotira xajmining qo'rsatikichi bo'ladi.

Masalan **32768 KB OK.**

Umumiy xolda monitor ekranidagi son kompyuterning umumiy (asosiy va kengaytma) xotiralarining yigindisiga teng bo'lishi kerak.

POST dasturi bajarilishi vaqtida xato aniqlansa monitor ekraniga bir necha rakamlardan iborat bo'lgan kod chiqariladi. Masalan: 1790-Disk O Error. Eksploatasiya qullanmasi yoki xizmat qo'rsatish yuruqnomadan bu kod orqali shixast to'g'risida ma'lumot olishimiz mumkin bo'ladi.

Maruza-6. Mavzu: «Tashxis dasturlari».

Reja:

1. Umumiy vazifalarni bajaruvchi tashxis dasturlar.
2. Tashxis dastur dastalari.
3. Opsion tizimlarining tashxis dasturlari.

IBM-mos keluvchi kompyuterlari uchun bir necha tashhis dasturlari mavjud (ayrimlari kompyuter bilan birga ta'minlanadi) Bu dasturlar kompterdagi nosozliklarni aniqlash uchun ishlatiladi. Xo'p xollarda bu dasturlar kompyuter bug'unlaridagi nuksonlarini aniqlay oladi. Bu dasturlarni taxminan bir necha guruxlarga ajratishimiz mumkin.

- ◆ POST (Power-On Self Test - kompyuterni ishga tushirganda o'zini-o'zi tekshirish). Xar bir ishga tushirishda amalga oshiriladi.
- ◆ Ishlab chiqaruvchi firmalarining tashhis dasturlari. Masalan IBM, Compaq, Hewlett-Packard, Del firmalari kompyuterning barcha komponentlarini singchiklab tekshirish uchun maxsus tashhis dastur ta'minoti yaratganlar. Kompyuter uchun qurilmalar ishlab chiquvchi firmalar xam aloxida shu qurilmalarni ishchanligini tekshiruvchi dasturlarni yaratadilar. Masalan SCSI-adapterlarini ishlab chikuvchi Adaptec firmasini masol kilib qo'rsatishimiz mumkin.

- ◆ Umumiy foydalanishga muljallangan tashhis dasturlari.
- ◆ Tashxis dastur dastalari

Umumiy vazifalarni bajaruvchi tashxis dasturlar.

IBM kompyuterlariga mos kelgan kompyuter modellari uchun qoʻplab tashhis dasturlari ishlab chiqilgan. Xotira, qattiq disk, yumshoq disk yurtuchilari, videoadapter va qoʻplab qurilmalarni tashhis qiluvchi dasturlar mavjud. Ayrimlari shunday dasturlar ichida yuqori oʻrinlarni egallagan boʻlsa, boshqalari professional darajagacha erishilishmaganligi sababi foydalanuvichlar tomonidan ishlatilmasdan unitilgan. Koʻplab test dasturlarini paket rejimida ishga tushirish mumkin. Bu esa avtomatlashtirilgan tekshiruvini tashkil qilish uchun dasturlar tuzishga va bir necha komptterlarda ketma-ket tashhis olib borishga imqoniyatlar yaratadi. Bu dasturlar barcha tipdagi tizim xotiralarini: asosiy(base), kengaytirilgan (expanded) va qoʻshimcha (extended) tekshirib nuksonlarini aniqlaydi va shixastlangan joyini aloxida mikrosxema yoki SIMM modulining bitigacha aniqlash imqonini beradilar.

SHunday savol tugʻilishi mumkin. Kanday tashhis dasturidan foydalanish kulay? Bu savolga aniq javob berish qiyin, chunki bunday dasturlar nixoyatda qoʻp. Ularning xar biri qandaydir ijobiy tomonlarga ega boʻlib, tashhisni oʻziga xos yoʻnalishda olib boradi. SHu sababli kompyuter tashhisini bitta dastur natijasiga qarab olib bormaslik kerak boʻladi. Jiddiy foydalanuvchi va mutaxassislar bu ishlar uchun bir necha tashhis dasturlaridan foydalanishadilar.

Endi bir necha shunday dastrularni qoʻrib chiqaylik.

AMI Diag. Bugungi kunda eng keng tarqalgan BIOS ishlab chiqaruvchi AMI firmasi (American Megatrends, Inc.) tomonidan yaratilgan dastur. Bu dastur koʻp yangi tizimdagi prosessorlarni, bir necha prosessorli (16-ta gacha) tizimlarni, 4Gbayt xotira xajmini, USB kontrollerlarini, SCSI-adapterlari va b.q. tashxis kiladi. Undan tashqari bu dastur yordamida kompterning multimediya funksiyalarini (CD-ROM, tovush kartasi, tasvir adapteri) xamda tarmoq tizimi funksiyalarini tekshiruvdan oʻtkazishi mumkin.

Checkit Pro. Bu dasturlar dastasi Touchstone Software Corp firmasining maxsuloti. Uning yordamida prosessor ishlashini, asosiy, kengaytirilgan va qoʻshimcha xotiralarini, qattik disk, disk yurtuvchisi, tasvir adapteri, monitor, sichqoncha, klaviaturalarni ishlashini tekshiradi. Bu dasturning bir necha versiyalari mavjud, ulardan biri - Checkil Professional Edition. Dasta Windows 9x va DOS operasion tizimlari uchun muljallanib, toʻla tashhis qilish uchun dasturlar toʻplamiga ega. Checkil Professional Edition ishlash tezligini tekshiradi, kompyuterning apparat vositalari xaqida toʻla axborot beraoladi.

Micro-scope. Micro 2000 firmasi tomonidan IBM kompyuterlariga mos kelgan kompyuter modellari uchun toʻla funksional tashhis dasturi. U kompyuterni tashhis kilish va kamchiliklarnni topish uchun qoʻp foydali funksiyalarga ega.

Bu dastur kirtish-chiqarish porlari va uzilishga soʻrov tashxisini boshqa dasturlarga nisbatan siffatli bajaradi. Siz bu dastur yordamida aniq adapter yoki qurilmaning uzilishlari va port adreslarini bilib olishingiz mumkin. Micro-scope oʻzining operasion tizimiga ega boʻlgani uchun DOS va BIOSdan foydalanmaydi, shu sababli dastur disketa, CD-ROM yoki DVD-ROMdan ishga tushirilishi mumkin.

Norton Utilities dastur dastasi. Norton Diagnostics (NDIAGS) Norton Utilities 8.0 versiyasi (DOS-Windows uchun) va Windows9x versiyalarining dastur dastasiga kiruvich dastur. U tizimning saqlash va tiklash funksiyalarini bajarish, tashxis etish va apparaturani testdan oʻtkazish ishlarini bajarishda bugungi kunda eng yaxshi dastur deb xisoblanadi.

Bu dastur dastasida yana diqqatga sazavor dasturlardan Speedisk, Disk Doctor va Calibrate utilitalari mavjud. Qattiq disklarga xizmat qoʻrsatish va qiymatlarni tiklashda bugungi kunda bu utilitalarga tengi yoʻq deb aysak adashmaymiz. Norton Utilities dastasining SYSINFO utilitasi xam tizmining ishlash tezligini tashxiz etish uchun muljallangan.

NDIAGS dasturi Norton Utilities dastasida ilgari boʻlmagan yana bir xizmat koʻrsatish turi bilan taʼminlagan: prosessor tipi, Bios versiyasi, soproessor, vileoadapter, sichqoncha va klaviatura turin, qattiq disk, disk yurtuvchisi, xotiraning xajmi, tizim shinasi, ketma-ket va parallel portlar soni xaqida maʼlumotlar beradi. Komplekt ichida razʼyomlarni test qilish utilitalar mavjud boʻlmasada, bunday utilatalarni pulsiz olish uchun kupon mavjud.

NDIAGS kompyuterning asosiy komponentlarini sinchiklab tekshirishdan tashkari klaviaturada joylashgan Num Lock, Caps Lock va Scroll Lock indikatorlarining ishlash xolatini aniqlaydi. NDIAGS monitor ekraniga tasvirni chiqarishini markazga olish uchun, rastr tasvirada nuksonlarni toʻgʻrilash maqsadida toʻr chiqarib berishi xam mumkin.

PC Technician. Windsor Technologies firmasi tomonidan ishlab chiqilgan tashxis dasturi. SHaxsiy kompyuterlarni tashxis qilish dasturi ichida eng uzok vaqt yashab kelayatgan dastur bo`lib, u doimo yangilanib(modifikasiya) kilib kelinmoqda.

PC Technician - tashxis etish va kompyuterning asosiy bug`unlarida nuqsonlarini aniqlash uchun ko`p funksiyali qurollariga ega. Barcha mutaxassislarga muljallargan tashxis dasturlari qatori u o`zining shaxsiy operasion tizimiga ega. Dastur assembler tilida yozilganligi uchun kompyuter apparaturasiga to`g`ridan-to`g`ri murojat etadi. Ketma-ket va parallel portlarini test qilish uchun barcha raz`em-zaglushkalar bilan ta`minlangan. Dastur shu soxa mutaxassislari uchun muljallangan va ular tomonidan kompyuterlarni tamirlash maksadida keng ishlatib kelinmoqda.

QLAPIus/FE. Diagsoft firmasining eng muraqqab va ko`p funksional dasturi xisoblanib, barcha rusimli kompyuterlarni tekshirish uchun ishlatiladi. U deyarli xamma narsani tekshiradi. Bu dastur sodda ekran interfeysiga ega bo`lgani uchun u bilan oddiy foydalanuvilar xam foydalanishilari mumkin. QUAPlus/FE kompyuterning ishchanligini aniqlab beraolishligi uchun undan yangi kompyuter sotib olishda foydalanish mumkin. Bu dasturdan, kompyuterda kanda OT(DOS, OS/2 yoki UNIX) o`rnatilganiga qaramasdan, diskdan yuklab, foydalanish mumkin. Kompyuterda jiddiy xato va buzilishlash sodir bo`lganda, masalan tizim qattik diskni aniqlolmaganda, kompyuter tizimi va apparaturaga tashxis kilish va iloji bo`lsa uni tuzatish uchun bu yagona yo`l xisoblanadi.

